

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!



VATANPARVAR

Gazeta 1992-yilning
24-iyunidan chiqa
boshlagan

2025-yil 5-dekabr
№49 (3163)

MILLIY ARMIYA – ONA YURT QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

www.mv-vatanparvar.uz

QOMUSIM – XALQIM IQBOLI

*Qomusim, sen elim istiqbolisan,
Xalqimning ishonchi, orzu qanoti.
Buyuk qadriyatlar singgan orisan,
Tengsiz sinovlarda sinmas saboti.*

*Yurtim iqbolida o'ring beqiyos,
Bag'ringda ulug' burch, da'vat mujassam.
Ulug'vor an'ana, shaxt o'zlikka xos,
Sharafga eltguvchi kuchsan muazzam.*

*Qomusim – har satring ustuvor qonun,
Adolat ko'zgusi derlar mukammal.
Vatan kelajagin yaratmoq uchun,
Millatga erursan dasturulamal.*

Zulfiya YUNUSOVA




KONSTITUTSIYA – INSON QADRI, ERKINLIK, TENGLIK VA ADOLAT GAROVI!

IJTIMOIIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

t.me/mv_vatanparvar_uz
vatanparvar-bt@mail.uz
facebook.com/mudofaavazirligi



t.me/mudofaavazirligi
instagram.com/mudofaavazirligi
youtube.com/c/uzarmiya



Shubhasiz, O'zbekistonning dunyo hamjamiyatida tutgan o'rmini mustahkamlash, xalq farovonligi, tinchligi, inson huquqlari kafolatini ta'minlaydigan adolatli davlat qurishda mamlakat xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish muhim. Bu borada "Xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish orqali ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish, mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish bo'yicha islohotlarni jadallashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ushbu tamoyil asosida bir qator ustuvor va istiqbolli vazifalarni amalga oshirish orqali mamlakatning ijtimoiy-siyosiy mavqeyini mustahkamlash dolzarb masalalardan biridir.

"Xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyilining ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilangan:

- Yangi O'zbekiston tashqi siyosatini xalq va davlatning manfaatlaridan kelib chiqqan holda izchil amalga oshirish;
- Markaziy Osiyo mintaqasida amaliy hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish;
- an'anaviy sheriklar bilan o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish, xalqaro hamkorlik geografiyasini kengaytirish, global ishlab chiqarish va yetkazib berish zanjirlariga qo'shilish;
- tashqi mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish, xorijda mehnat faoliyatini yuritayotgan fuqarolarga har tomonlama ko'mak ko'rsatish;
- jahonda sodir bo'layotgan murakkab global jarayonlarni inobatga olgan holda, Qurolli Kuchlarning qudrati, mamlakatning mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yanada oshirish;
- favqulodda vaziyatlar va global iqlim o'zgarishi bilan bog'liq aholi hayotiga xavf soluvchi ofatlarning oldini olish;
- chegaralar xavfsizligini mustahkamlash;
- jamiyatda millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlash va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini rivojlantirish.

Hozirgi kunda xalqaro munosabatlarda yuz berayotgan siyosiy o'zgarishlar O'zbekiston Respublikasiga ham o'zining ta'sirini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, xavf va tahdidlarning yangi turlari yuzaga keldi. Bu, o'z navbatida, ularga qarshi kurashda yangi usul va vositalardan foydalanishni talab etadi.

“XAVFSIZ VA TINCHLIKSEVAR DAVLAT” TAMOYILINING AMALIY IFODASI

"O'zbekiston – 2030" strategiyasining "Xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish yo'nalishi doirasida amalga oshiriladigan muhim maqsad va vazifalarda mintaqaviy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish, O'zbekistonning jahon bozoriga chiqishiga imkon yaratuvchi transport-logistika yo'laklarini diversifikatsiya qilish, Qurolli Kuchlar qudrati, mamlakatning mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yanada kuchaytirish ko'zda tutilgan.

Yangi O'zbekistonning barqaror milliy taraqqiyotini ta'minlash, sarhadlarimiz yaxlitligi, yurtdoshlarimiz tinch-osuda hayotini ta'minlash davlatning mudofaa va xavfsizlik siyosatiga bog'liq. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, **"dunyoda kechayotgan murakkab jarayonlar yaqin-uzoq mintaqalarda kuzatilayotgan ziddiyat va to'qnashuvlar sharoitida biz yurtimizda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash borasidagi ishlarimizni yanada jadallashtirishimiz lozim"**.

Bu sa'y-harakatlar zahirida yurtning musaffo osmonini, chegaralar yaxlitligini saqlash yo'li bilan, mamlakat aholisining farovon hayotini ta'minlash nazarda tutilgan. Zero xalqparvarlik, yurtsevarlik, ma'rifat nurini tarqatish xalqimizning qon-qoniga singib ketgan azaliy fazilat sanaladi. Bu, O'zbekiston Respublikasining mudofaa va xavfsizlik sohasidagi siyosatida o'z aksini topgan "harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmaslik, har qanday davlatlararo tuzilmadan, agar u harbiy-siyosiy blok etib o'zgartirilsa, chiqib ketish huquqini o'zida saqlab qolish"ga amal qilayotganligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi huquqiy-demokratik davlat qurish va uni rivojlantirish yo'lidan ildam borib, dunyo hamjamiyatida o'z obro'siga va yetarli salohiyatga ega davlatlar qatoridan mustahkam o'rin egallashga intilayotgan davlat sifatida o'zining ichki va tashqi siyosatini olib bormoqda. Mamlakatimiz Konstitutsiyasi asosida Qurolli Kuchlarni yanada rivojlantirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada jamiyatning barcha sohalari bilan parallel ravishda Mudofaa va xavfsizlik sohasida ham davlatning yagona siyosati ishlab chiqildi.

Xususan, qabul qilingan qator hujjatlar bilan birgalikda 1997-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi milliy xavfsizlik Konsepsiyasi, 2018-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Mudofaa doktrinasi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ushbu huquqiy-me'yoriy hujjatlarda bugungi tez o'zgaruvchan zamonning o'ziga xosligini inobatga olgan holda O'zbekistonning hayotiy muhim milliy manfaatlarini, xavfsizlikka bo'lgan tahdidlar, milliy xavfsizlikni ta'minlash tizimi, asosiy yo'nalishlari va tamoyillari belgilab berildi.

Mazkur huquqiy-me'yoriy hujjatlarda belgilangan maqsad va vazifalarga erishish va uni amalga oshirishda O'zbekiston nafaqat ichki, balki barcha xalqaro huquq normalarni inobatga olgan holda o'zining faol tashqi siyosatini ham olib bormoqda. Bu maqsadlarga erishishda barcha davrlarda bo'lgani singari harbiy xavfsizlik va uning asosiy yo'nalishlarini belgilab olish masalasi eng asosiy va muhim hisoblanib, unga davlat tomonidan lozim darajada e'tibor qaratilishi zarur bo'ladi.

Mustaqillikni, suverenitetni, hududiy yaxlitlikni va konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, davlatning harbiy xavfsizligini ta'minlash, Markaziy Osiyoda xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni, xavfsizlikni, barqarorlikni va yaxshi qo'shnichilikni mustahkamlash,

davlatning harbiy tashkilotini muntazam ravishda rivojlantirish, uni O'zbekiston Respublikasini qurolli himoya qilishga shay holatda saqlab turish O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasida mamlakat mudofaa sohasidagi siyosatining asosiy maqsadlari sifatida belgilangan.

Yangi O'zbekiston dunyoning barcha mamlakatlari bilan do'stona munosabatlarni yo'lga qo'yib, yaqin qo'shnichilik tamoyillariga amal qilib, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy sohada bir qator olamshumul natijalarni qo'lga kiritmoqda.

XXI asrda siyosiy jarayonlar va xavfsizlikning mohiyati o'zining eng yuqori bosqichi – urush yoki harbiy nizoga aylanib ketadigan davlatlararo qarama-qarshilikning yangi to'lqinini namoyon etdi. Bu, shak-shubhasiz, dunyoda bo'lib o'tayotgan shiddatli o'zgarishlar, xususan harbiy sohada ko'plab yangi noan'anaviy to'qnashuvlar va tahdidlar paydo bo'lishi bilan tavsiflanadigan o'zgarishlar bir qutbli tizimdan ko'p qutbli dunyoviy tartibotga o'tish davri bilan bog'liqdir.

Bu o'rinda, davlatlarning harbiy siyosati xalqaro munosabatlarning oldingi safiga chiqib, xavfsizlik, mudofaa va umuman olganda, tinchlik o'rnatishni ta'minlash borasida ularning har tomonlama puxta o'ylanganlik, omilkorlik va mutanosiblik sifatleri dolzarblik ahamiyat kasb etadi.

Harbiy-siyosiy munosabatlarning kuchlar muvozanatini ta'minlash bosqichiga o'tishi o'rta yandigan yangi savollarni tashladiki, ularga javob topishimiz lozim bo'ladi. Siyosatning harbiy kuch ishlatuvchi qismi ham o'z ahamiyatini yo'qotmadi, davlat mustaqilligi va suverenitetini saqlash, o'tmishda bo'lgani kabi, bu qismni ishonchli ta'minlashni talab etmoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar davlatimizning milliy manfaatlarini amalga oshirish bo'yicha oldimizga qo'ygan ulkan maqsadlarimizning yagona yo'li O'zbekiston Respublikasining milliy xavfsizligini yetarli darajada ta'minlash bo'lib, kelgusida mamlakatimizni jahon davlatlari orasida mustahkam o'rin olishiga xizmat qiladi.

Qurolli Kuchlarimizning tuzilishi va harbiy sohadagi islohotlar, kadrlarni tayyorlash tizimining takomillashuvi, milliy xavfsizlik sohasiga bo'lgan tahdidlarni aniqlash va ularning oldini olish, Prezidentimizning global va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashdagi tashabbuslari, O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida harbiy hamkorlik kabi yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan tizimli ishlar mamlakatimiz hamda Markaziy Osiyo mintaqasidagi tinchlik va barqarorlikning asosiy omiliga aylandi.

Natijada so'nggi yillarda O'zbekistonning xalqaro munosabatlari geografiyasini kengaytirish va ularni rivojlantirish bobida salmoqli ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston o'zining tinchliksevar, yaxshi qo'shnichilik, o'zaro pragmatik hamkorlikka qaratilgan siyosati natijasida jahon hamjamiyatida

o'zining munosib o'rini egalladi. Buni biz O'zbekiston dunyoning **165 ta** davlati bilan siyosiy-diplomatik aloqalarni o'rnatgani, **20 ga** yaqin davlat bilan strategik sherikchilik va **4 ta** davlat bilan ittifoqchilik to'g'risidagi shartnomalarga ega ekanida ko'rishimiz mumkin.

Zamonaviy xalqaro munosabatlarda O'zbekistonning o'rni o'z-o'zidan mustahkamlanib borayotgani yo'q. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida Markaziy Osiyo davlatlari, yon qo'shnilarimizga nisbatan amalga oshirilayotgan ochiq, o'zaro ishonchga asoslangan faol tashqi siyosat mintaqamizda ro'y berayotgan o'zgarishlarda muhim poydevor bo'ldi. **Xalqaro ekspertlarning qayd etishicha, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mintaqada uzoq yillar to'planib qolgan muammolarga yechim topishda muhim siyosiy iroda namoyish etmoqda.**

O'zbekistonning BMT, SHHT, MDH va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida ko'ptomonlama hamkorligi iqtisodiy, madaniy, kommunikatsiya, tranzit aloqalarini rivojlantirish, ekologik muammolarni birgalikda bartaraf etish, mintaqada kelib chiqishi mumkin bo'lgan konfliktlarning oldini olish va ularga barham berish imkonini yaratdi. O'zbekistonning xalqaro munosabatlarning turli subyektlari bilan aloqalari qanchalik chuqur va keng bo'lsa, ular bilan munosabatlarda noaniqliklar, yotsirashlar, muammolar va hal qilinmagan masalalar, kutilmagan voqea-hodisalar shunchalik kam bo'ladi. Mazkur jihat xavfsizlikka bo'lgan tahdidlarni bartaraf etish va barqaror rivojlanishni ta'minlashning zarur shartidir.

Yuqorida ta'kidlangan fikrlar asosida aytishimiz mumkinki, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati quyidagi yutuqlarga erishish imkonini bermokda:

birinchidan, Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari bilan manfaatlar kesimida saqlanib qolayotgan transchegaraviy muammolarni tinch yo'l bilan hal etish mexanizmlari ishlab chiqilib, mavjudlarining takomillashtirilishiga;

ikkinchidan, ko'ptomonlama xalqaro munosabatlarda doirasida manfaatli hamkorlik sohalarining kengaytirilishiga;

uchinchidan, iqtisodiy integratsiyalashuv omili O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida muhim yo'nalishlardan biri ekan, avvalo, bu jarayonni chegaradosh davlatlar bilan o'zaro manfaatlar muvofiqligi asosida yo'lga qo'yilishiga;

to'rtinchidan, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va eksport salohiyatini oshirish maqsadida, nafaqat jahon moliya subyektlari va iqtisodiy barqaror davlatlar, balki xususiy tadbirkorlik subyektlari bilan hamkorlikni kengaytirish maqsadida qulay iqtisodiy shart-sharoitlarning yaratilishiga;

beshinchidan, O'zbekiston mintaqasi va jahon siyosatidagi muhim yo'nalishlar bo'yicha xalqaro tashabbuslarini ilgari surib borishi xalqaro hamjamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanib, bir qator xalqaro hujjatlar ishlab chiqilishiga asos bo'ldi.

**Podpolkovnik
Rustem KENPEILOV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa
universiteti Ichki ishlar vazirligi
qo'shinlarini tayyorlash kafedrasida
siki boshlig'i**

Konstitutsiya – inson qadri, erkinlik, tenglik va adolat garovi!

KONSTITUTSIYA: EKOLOGIK HUQUQ VA MAJBURIYATLAR



“Joriy yilning 21-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 33 yilligini munosib kutib olish to‘g‘risidagi farmoyish qabul qilindi. Mazkur hujjat bilan bayram dasturi va tadbirlarni tashkil etish uchun mas‘ul tashkiliy qo‘mita tarkibi tasdiqlandi.

Shu kunlarda Konstitutsiyaga bag‘ishlangan tadbirlar yurtimizning barcha shahar-tumanlarida va hatto eng kichik aholi punktlarida ham o‘tkazilmoqda. Bayram dasturi ochiq muloqotlar, madaniy kechalar, festivallar, olimlar, san‘at arboblari va sportchilar bilan uchrashuvlarni o‘z ichiga olgan.

Tadbirlar davomida Konstitutsiyaning mamlakatdagi iqtisodiyot, ijtimoiy soha, fan, madaniyat, sport va inson huquqlarini himoya qilishdagi o‘rni tushuntirilmoqda. Ta‘lim muassasalarida bayram oldidan huquqshunoslar va davlat organlari vakillari ishtirokida “Konstitutsiya darslari” o‘tkaziladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya 2023-yil 1-mayga qadar amalda bo‘lgan Konstitutsiyaga nisbatan 65 foizga o‘zgargan. Undagi normalar soni oshgan, xususan, ekologiya va tabiat muhofazasi bilan bog‘liq normalar ham ko‘payganini alohida e‘tirof etish lozim.

Chunki hozirgi vaqtda dunyoda kelib chiqayotgan ekologik muammolar aksariyat davlatlar tomonidan o‘z Konstitutsiyalariga maxsus ekologik bo‘limlarni kiritishni taqozo etmoqda.

Asosiy Qonunimiz muqaddimasida O‘zbekiston yagona xalqi, mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko‘paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-

avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib ushbu Konstitutsiyani qabul qilganliklari ta‘kidlangan. O‘z navbatida, Konstitutsiyaning 49-moddasida qayd etilganidek:

“Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega.

Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta‘minlash va atrof-muhitga zararli ta‘sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkaziladi.

Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Davlat Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralarni ko‘radi”.

Konstitutsiyamizning 115-moddasida esa atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklarni va biologik xilmaxillikni saqlash, iqlim o‘zgarishiga, epidemiyalarga, pandemiyalarga qarshi kurashish hamda ularning oqibatlarini yumshatish sohalarida yagona davlat siyosati amalga

oshirilishini ta‘minlash O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi zimmasiga yuklatilgan.

Sir emaski, keyingi kunlarda Toshkent shahri va unga qo‘shni hududlarda yashovchi aholi iflos va nosog‘lom havodan nafas olib yashamoqda. Bunga bee‘tibor bo‘lmagan mamlakatimiz Prezidenti joriy yilning 24-noyabr kuni ekologik vaziyatni o‘nglash uchun kechiktirib bo‘lmaydigan choralarni ko‘zda tutilgan “Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonini qabul qildi.

Farmonga muvofiq, ekologik choralarni amalga oshiruvchi maxsus komissiya tuzildi. Komissiya yurtimizda AI-80 markali benzindan voz kechishni nazorat qiladi, qurilish obyektlarida cheklovlar va changni kamaytirish talablarini joriy etadi, zarur hollarda transport harakatini cheklaydi, xususan, yuk mashinalari harakatini, toq-juft tartibini va cheklov qo‘yiladigan yo‘l va hududlarni belgilaydi, tabiiy chang kuchayganda sanoat, transport, issiqlik ta‘minoti va boshqa sohalarida cheklovlar joriy etadi va ekologik vaziyatni yaxshilash bo‘yicha boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

Tabiiyki, ushbu farmon qabul qilinganidan keyin qanday ekologik tadbirlar amalga oshirildi, degan savol tug‘iladi.

Ommaviy axborot vositalari ma‘lumotlariga ko‘ra, 25-noyabr kuni Toshkent shahrida havo ifloslanishini kamaytirishga qaratilgan ishlarga 71 ta maxsus suv sepih texnikasi jalb etilgan va yo‘l bo‘yidagi daraxtlarni yuvish ishlari amalga oshirilgan:

- 177 ta ko‘cha (jami 444 km), shu jumladan yo‘l yoqalaridagi daraxt va butalar yuvilgan;
- 241 ta qurilish obyektida 48 ta maxsus texnika yordamida

suv purkash va changni bosish ishlari olib borilgan;

- 1 ta hududdagi ko‘cha va xiyobonlar atrofidagi sun‘iy sug‘orish tarmoqlari ishga tushirilgan;

- 19 ta bozor va yirik savdo majmualari atrofidagi 2 ta favvora va 1 ta suv saqlash hovuzi ishga tushirilgan;

- shuningdek, bir kunda ekologik talablarga javob bermaydigan 890 ta qurilish obyekti ishi to‘xtatilgan.

Kuni kecha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ekologiya masalalari bo‘yicha maslahatchisi – Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi raisi Aziz Abduhakimov Toshkent shahrida yuzaga kelgan ekologik vaziyat va uni yumshatish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralarni haqida axborot berdi. Ushbu asosiy ma‘lumotlarga ko‘ra, mavjud vaziyat Respublika rahbariyatining doimiy nazorati ostida, davlatning tezkor javob berish mexanizmi to‘liq ishlamoqda va qabul qilinayotgan barcha qarorlar aniq ma‘lumotlarga hamda ilmiy tahlillarga asoslangan.

Shuningdek, barcha chora-tadbirlar Prezident farmoni, maxsus komissiya qarorlari va ilmiy tashkilotlar tavsiyalariga qat‘iy amal qilgan holda amalga oshirilmoqda. Maxsus komissiya tomonidan davlat organlari, tashkilotlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar 24/7 rejimida safarbar qilingan.

Fursatdan foydalanib, Toshkent shahrida ekologik vaziyatni tiklash va barqarorligini ta‘minlash uchun shu hududda yashovchi, mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi har bir fuqaro mas‘uliyatni chuqur anglab olishi zarur deb hisoblaymiz. Tabiatni asrab-avaylash uchun barchamiz birdek mas‘ul ekanimizni unutmaylik.

Binobarin, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 62-moddasida mustahkamlab qo‘yilganidek, “Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburlar”.

Otabek NORBOYEV,
Inson huquqlari bo‘yicha
O‘zbekiston Respublikasi
Milliy markazi bo‘lim boshlig‘i

Men g'olib!

HAQIQIY G'OLIBLAR

Bir necha yildan buyon Mudofaa vazirligi qo'shinlarida muddatli harbiy xizmatchilar o'rtasida "Men g'olib!" shiori ostida "Eng ilg'or mutaxassis" musobaqasi o'tkazib kelinishi milliy armiyamizga munosib kadrlarni tanlab olish imkoniyatini yaratib bermoqda. Bir so'z bilan aytganda, hayotini Vatani oldidagi sharaflı kasbga bag'ishlagan yurt himoyachilari uchun bu musobaqani ilk imtihon sinovlari, desak, adashmaymiz. Chunki uning zahirida har bir soha mutaxassisligini egallashda bo'lganidek, harbiylik kasbining o'ziga yarasha qiyinchilik va mas'uliyati jamlangan bo'ladi.

Markaziy harbiy okrug "Forish" tog' poligonida tashkillashtirilgan musobaqaning Mudofaa vazirligi bosqichi haqiqiy g'oliblar jang maydoniga aylandi. Negaki xizmat burchini o'tayotganiga hali bir yil ham bo'lmagan okrug bosqichi g'oliblari sifatida kelgan yigitlar saf maydonidayoq o'zlarini kasbining professionallari sifatida namoyon eta olishdi. Ko'p yillik tajribaga ega Vatan himoyachilariga taqlid qilgandek, boshdan oyoq jangovar, maxsus kiyimlarda qaddini tik tutib turganini ko'rib, havas qilmaslikning iloji yo'q. Tankchi, mergan, o'qchi, pulemyotchi, aloqachi, faxriy qorovul, muhandis-sapyor va hokazo. Bari o'z okrugining g'oliblari, bari mard o'g'lonlar!

Musobaqaning tantanali ochilish marosimidagi muhit ham bu yilgi bellashuvlarda yangi-yangi nomlar kashf etilishidan dalolat berib turardi. Muddatli harbiy xizmatchilar qisqa vaqt davomida o'z mutaxassisligi sirlaridan tortib, shaxdam qadam tashlashni, O'zbekiston Respublikasi va Mudofaa vazirligi bayrog'iga hurmat ko'rsatish kabi harakatlarni soat mexanizmi singari bexato bajarardi. Ayniqsa, davlatimiz

madhiyasining jo'r ovoza kuyinishi Forish tog'larida o'z aksadosini berdi. Ochilish marosimi tugashi bilan qatnashchilar jismoniy tayyorgarlik hamda nazariy bilimlar bo'yicha murosasiz bahslarni boshlab yubordi. 100 metr ga yugurish, 400 metrlik to'siqlar yo'lagini bosib o'tish, turnikda tortilish va test mashqlarini yechish kabi shartlar bilan muddatli harbiy xizmatchilar o'rtasidagi "Eng ilg'or mutaxassis" musobaqasiga start berildi.

Bir so'z bilan aytganda, deyarli bir hafta davom etgan bellashuvlar davomida eng kuchli jangovar mashina ekipaji, minomyot, havo hujumiga qarshi zenit qurilmasi, AGS, RPG hisoblari, o'qchi, pulemyotchi, mergan, muhandis sapyor, aloqachi, faxriy qorovul, oshpaz kabi yo'nalishlar bo'yicha yangi iqtidor egalari kashf etildi. Negaki Vatan oldidagi yigitlik burchini o'tayotganiga hali bir yil ham bo'lmagan, respublika bosqichiga okrug miqyosidan saralab olingan muddatli harbiy xizmatchilar "Men g'olib!" musobaqasi orqali yangi hayotga qadam tashladi. G'olib va sovrindorlar sharaflı kasb egasi bo'lish imkoniyatini qo'lga kiritdi. Eng muhimi, ular ushbu musobaqa jarayonida jang maydonida kurashishning ilk saboqlarini oldi.

Musobaqada beshta okrug va mudofaa vazirligiga qarashli qo'mondonlikdan, jami olti jamoa ishtirok etdi. Dastlabki natijalarga ko'ra, ko'plab rekordlar, yuqori ko'rsatkichlar qayd etilganini nazarda tutsak, musobaqa yakunida ularning soni



JANG MAYDONIDA SARALANDI



bir nechtaga ko'paydi. Jarayonlarni kuzatar ekanmiz, jamoaviy bellashuvlarda ham, shaxsiy yo'nalishlarda ham g'oliblik uchun kurash keskin kechganiga guvoh bo'ldik. Ayniqsa, shaxsiy yo'nalishda shartlarda qatnashgan muddatli harbiy xizmatchilar jangovar qurollardan otishdan tashqari, to'siqlar yo'lagini bosib o'tish kabi murakkab shartda bukilmas iroda, jismoniy qobiliyat va tezkorliklarini namoyish etdi. Ana shu shartlarda startga chiqib kelgan har bir mergan, o'qchi, pulemyotchi, granatamyotchining xatti-harakatlari professionallarga xos namoyon bo'ldi.

Vatan oldidagi sharaflı burchini o'tayotgan muddatli harbiy xizmatchilar musobaqaning tantanali yopilish marosimida munosib taqdirlandi. G'olib va sovrindorlarga diplom hamda esdalik sovg'alar topshirildi.

“Eng ilg'or muhandislik razvedka dozori” – 1-o'rin – Markaziy harbiy okrug jamoasi;

“Eng ilg'or maxsus ishlov berish hisobi” – 1-o'rin – Markaziy harbiy okrug jamoasi;

“Eng ilg'or KZRK (ko'chma zenit raketa majmuasi) seksiyasi” – 1-o'rin – Markaziy harbiy okrug jamoasi;

“Eng ilg'or BTR 80 ekipaji” – 1-o'rin – Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug jamoasi;

“Eng ilg'or T-72 ekipaji” – 1-o'rin – Janubiy operativ qo'mondonlik jamoasi;

“Eng ilg'or haydovchi” – 1-o'rin – oddiy askar Asamatdin Ismetov (Markaziy harbiy okrug);

“Eng ilg'or aloqa ekipaji” – 1-o'rin – Markaziy harbiy okrug jamoasi;

“Eng ilg'or RKBR hisobi” – 1-o'rin – Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug jamoasi;

“Eng ilg'or ZU-23-2 hisobi” – 1-o'rin – Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug jamoasi;

“Eng ilg'or o'qchi” – 1-o'rin – oddiy askar O'rol Ergashev (Janubiy operativ qo'mondonlik);

“Eng ilg'or mergan” – 1-o'rin – oddiy askar Botir Po'latov (Sharqiy harbiy okrug);

“Eng ilg'or pulemyotchi (RPK)” – 1-o'rin – oddiy askar Amirbek Nutfullayev (Shimoli-g'arbiy harbiy okrug);

“Eng ilg'or pulemyotchi (PKM)” – 1-o'rin – oddiy askar Hamidullo Nabiyeov (Sharqiy harbiy okrug);

“Eng ilg'or RPG-7 granatamyot hisobi” – 1-o'rin – oddiy askarlar – Shohrux Ro'ziyev, Oybek Hamroyev (Sharqiy harbiy okrug);

“Eng ilg'or AGS-17 granatamyot hisobi” – 1-o'rin – Markaziy harbiy okrug jamoasi;

“Eng ilg'or to'p hisobi” – 1-o'rin – Markaziy harbiy okrug jamoasi;

“Eng ilg'or reaktiv artilleriya hisobi” – 1-o'rin – Markaziy harbiy okrug jamoasi;

“Eng ilg'or minomyot hisobi” – 1-o'rin – Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug jamoasi;

“Eng ilg'or artilleriya razvedka mutaxassisi” – 1-o'rin – oddiy askar Shahriyor Fayzullayev (Markaziy harbiy okrug);

“Eng ilg'or artilleriya topobog'lovchi mutaxassisi” – 1-o'rin – oddiy askar G'olib Rashidov (Sharqiy harbiy okrug);

“Eng ilg'or artilleriya nishonga yo'naltiruvchi mutaxassisi” – 1-o'rin – oddiy askar Shohjahon Jahongirov (Shimoli-g'arbiy harbiy okrug);

“Eng ilg'or oshpaz” mutaxassisi – 1-o'rin – Shimoli-g'arbiy harbiy okrug jamoasi;

“Eng ilg'or faxriy qorovul mutaxassisi” – 1-o'rin – oddiy askar Bobomurod Samandarov (Janubiy operativ qo'mondonligi).

Asror RO'ZIBOYEV,
“Vatanparvar”



Shijoat maydoni

Mudofaa vazirligi tog' tayyorgarligi o'quv-mashqlar markazida "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati a'zolari ishtirokida ilk bor "Shijoat maydoni" majmuaviy-amaliy harbiy sport musobaqalari o'tkazildi.

10-11-sinf o'quvchilari ishtirok etgan mazkur bahslarda jamoa a'zolari g'oliblikni qo'lga kiritish uchun bor kuch-salohiyatlarini ishga solib kurash olib bordi. Qatnashchilar uchun chinakam shijoat va matonat maydoni bo'lgan musobaqalardagi shartlar bir-biridan murakkabligi bilan ham jarayonlarni yanada qizg'in tus oldirdi.

Bellashuvlar "Majmuaviy estafeta" sharti bilan boshlandi. Bunda har bir jamoadan 5 nafardan ishtirokchi o'zaro kuch sinashdi. Qatnashchilar 500 metrli masofadagi tepalikka yugurish orqali tezkor va chaqqonliklarini amalda isbotlashi kerak edi. Ahamiyatlisi, tarkibda o'g'il bolalar bilan bir safda qizlar ham jamoa sharafigi munosib himoya qildi.

Keyingi shart – "Qarama-qarshi jang" (*Contr stike*). Bunda ham tezkor qaror qabul qilish, chaqqonlik va tezkorlik chin ma'noda yuzaga chiqdi.

Aytish kerakki, bilimli va salohiyatli yoshlar har qaysi davrda ham davlatning ertangi taraqqiyotini belgilagan. Shuning uchun ham bugun mamlakatimizda navqiron avlod vakillarining jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishlari, rejalarini amalga oshirishlari, o'qib, izlanishlari uchun qulay sharoitlar yaratib berilmoqda. O'tkazilgan mazkur musobaqalar, ayniqsa navqiron avlod vakillarining o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish, jamoaviy ishlash ko'nikmalarini yanada mustahkamlash, olg'a yurish, eng muhimi, yurtparvar bo'lish, mas'uliyatli yashashga o'rgatishga xizmat qilmoqda.

– Bu musobaqa ilk marotaba o'tkazilayotgan bo'lsa-da, yoshlar unda katta g'ayrat va shijoat bilan qatnashdi, – deydi polkovnik Bahrom Zulfiqorov. – Bizning asosiy maqsadimiz – o'g'il-qizlardagi iqtidor va iste'dodlarni yuzaga chiqarish va ularning qalbida, avvalo, Vatanga muhabbatni yanada kuchaytirish, maqsadli yashashga odatlantirishdan iborat. Bilasizmi, nega maqsadli yashash deyapman? Chunki kishi maqsadli bo'lsa, u hamma narsaga qodir bo'ladi. O'zini, o'zligini anglaydi va bu anglash alaloqibat insonni yuksaklikka olib chiqadi. Bugungi musobaqalarda qatnashayotgan yoshlar ham shu yo'lda. Ular bahslarda nafaqat o'zaro kurash olib bordi, balki ayni yo'nalishda tajribalarini ham orttirdi.

Musobaqaning eng shijoatli ko'rinish olgan shartlaridan biri – "Chavandozlik mahorati" bo'ldi. Qatnashchilar ot ustida erkin harakatlanib, o'zlaridagi chavandozlik mahoratlarini amalda namoyon etdi. "Kamondan o'q otish" sharti ham qizg'in kechdi.

HAR BIR QADAM




Bahslar tog'oldi hududlarida kechishiga qaramay, yoshlar berilgan shartlarni qisqa vaqt ichida va to'g'ri ado etishga astoydil harakat qildi. Ahamiyatlisi, qatnashchilar uchun ushbu hudud mutlaqo notanish. Demak, bu musobaqaning shiddatligini yanada oshiradi. Xususan, "Tog'li hududlarda harakatlanish" shartida o'g'il-qizlar startdan to finishgacha bo'lgan masofani karta orqali topishi kerak bo'ldi. Bunda tarkibning har biri o'z imkoniyatini amalda ko'rsatishi g'alaba qozonish imkonini beradi. Qisqasi, pastdan tepaga qarab bosilgan har bir qadam yoshlarni borgan sari zafar darvozasi tomon yaqinlashtirardi.

– Ochiq havoda tashkil etilgan musobaqalarda hammamiz bor imkoniyatlarimizni ishga solib, g'oliblikka intildik, – deydi Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanidagi 36-umumta'lim maktabining 11-sinf o'quvchisi Maqsud Rahimov. – Bu yerda birlik emas, jamoa bilan ishlay olish ko'nikmasi borlarga g'alaba qozonadi. "Vatan tayanchi" otryadiga a'zo bo'lgan kunimdan boshlab, ana shu qarash bilan harakat qilyapman. Chunki hammamiz – O'zbekiston yoshlari bir bo'lsak, ota-bobolarimiz orzu qilgan kelajakni qura olamiz. Keyingi yilda maktab bilan xayrlashamiz. Qaysi yo'nalishda faoliyat olib borishni hozirdanoq tanlab olmasak, ertaga shoshib qolamiz. Shuning uchun ham men hammasini tarozi pallasiga qo'yib ko'ryapman. Va bugungi musobaqalar, harbiy xizmatchilar uchun yaratilgan sharoitlarni ko'rib



ZAFAR DARVOZASIGA ELTSIN



va eng muhimi, mudofaa vaziri bilan kechgan suhbatdan so'ng fikrlarim yanada teranlashdi. Bahslarga keladigan bo'lsam, men kabi aniq to'xtamga kela olmay yurgan tengqurlarim uchun kurashlar muhim o'rin tutdi, deb o'ylayman.

Aytish kerakki, "Shijoat maydoni" musobaqasidagi shartlar uzviy davom etadi. Ya'ni vazifalar biri ikkinchisiga ulanib ketadi – yo'l ochadi.

Masalan, "Tog'li hududlarda harakatlanish" shartini bajargan jamoa so'nggi nuqtaga yetib borgach, "Chodir qurish"ni boshlaydi. Keyin "Tabiiy usulda olov yoqish"ni amalga oshiradi. Qorda, tog' yonbag'irida bu jarayonlarni amalga oshirish, ochig'i ko'ringanidek oson kechmadi. Qolaversa, topshiriqlarni ado etayotgan qatnashchilar uchun bularning barchasi mutlaqo begona. Ya'ni ular shu vaqtgacha ayni yuklamalardan o'tmagan.

Darvoqe, ayni jarayonlar – musobaqadagi shartlarni to'g'ri va haqqoniy, shaffof o'tishi, qolaversa, zarur vaqtlarda yoshlarga kerakli maslahatlar berish uchun harbiy xizmatchilar birlashtirildi. Markazdagi yo'riqchilar qatnashchilarning barcha harakatlarini kuzatib, nazoratga olib bordi.

Ko'm-ko'k osmonda o'roqdek ko'rinish olgan oy siniq miltillab turibdi. Tog' shabadasi har tomondan kelib uriladi. Qor sovug'i quloqlarni qizdirar, qo'l panjalari uvusha boshladi. Tog' etagidagi nishabroq joyda gulxan yoqildi. Yoshlar aylana hosil qilib o'tira boshladi. Kun davomidagi taassurotlar o'rta tashlanmoqda. Olovning issiq tafti

namiqqan ust-boshlardan bug'larni ko'tarar, vujudga ilqlik baxsh etardi. Pastdan bir guruh harbiy xizmatchilar ayni joyga chiqib kelayotganini ko'rib, hamma diqqatini shu tomonga qaratdi. Ko'p o'tmay mehmonlar gulxan oldiga keldi. Ahamiyatlisi, ular orasida mudofaa vaziri general-leytenant Shuxrat Xalmuxamedov ham bor edi.

Qisqasi, musobaqa "Vazir va yoshlar" uchrashuviga ulanib ketdi. Bu jarayonlar tabiat qo'ynida, ochiq osmon ostida va yana tog'lar guvohligida bo'lib o'tayotgani o'g'il-qizlarni yanada ruhlantirardi. Suhbat savol-javoblarga bog'landi. Yoshlar mudofaa vaziriga o'zlarini qiziqtirgan masalalar bo'yicha yuzlandi. Vazir ham xizmat faoliyati, erishgan yutuqlari to'g'risidagi ma'lumotlarni berdi. Bahslardagi shartlar xususida fikrlar almashildi, taassurotlar tinglandi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli o'zgarishlar, xususan Qurolli Kuchlarimizning jangovar qudratini yanada oshirish, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi doimiy davlatimiz e'tiborida ekani alohida ta'kidlandi. Ayniqsa, yoshlarning jamiyatdagi rolini kuchaytirish, maqsad va rejalarini amalga oshirishlari uchun zarur chora-tadbirlar ko'rilayotgani misollarda keltirib o'tildi. Ushbu – "Shijoat maydoni" majmuaviy-amaliy harbiy sport musobaqalari ham ayni maqsadlarni ko'zlab o'tkazilgani e'tirof etildi.

"Chimyon" qoyalari ostida gurullab yonib turgan gulxan atrofidagi ushbu suhbatda Qurolli Kuchlar faxriylari ham o'z tajribalaridan kelib chiqib, yoshlarga hayotda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo'lgan maslahatlarni berdi. Xullasi kalom, yuqori energiya talab etiladigan bahslarda do'stona kurash olib borgan qorako'zlar nafaqat o'z imkoniyatlarini sinovdan o'tkazib oldi, balki harbiy xizmatchilar bilan ham dildan suhbat qurib, g'ayrat-shijoatli bo'lishni, muhimi Vatanni hamisha sevis va uning tinchligiga kamarbasta bo'lish chin farzandlik burchi ekanini teran anglab yetdi.

Shunday qilib, musobaqaning ilk mavsumida g'oliblik sari intilgan jamoalar orasidan munosiblar aniqlab olindi. Yakuniy natijalarga ko'ra, 1-o'rinni Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumani 50-maktabning "Yosh alpinistlar" jamoasi qo'lga kiritdi. 2-o'ringa Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani 2-maktabning "T-34" jamoasi munosib topildi. 3-o'rinni esa Toshkent shahri Chilonzor tumani 201-maktabning "Kuch birlikda" jamoasi qo'lga kiritdi.

G'oliblarga diplom, esdalik sovg'alar va maxsus kubok topshirildi.

Darvoqe, "Shijoat maydoni" musobaqalari endilikda "Vatan tayanchi" harakati a'zolari ishtirokida muntazam tarzda o'tkazib boriladi.

Kapitan Shohrux SAIDOV,
"Vatanparvar"



8-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun

KONSTITUTSIYA TARIXIDA O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASINING O‘RNI

Konstitutsiya – davlatning asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati va shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxsning o‘zaro munosabatlari, shuningdek sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarini belgilab beradi.

“Konstitutsiya” atamasi Qadimgi Rimdayoq ma’lum bo‘lgan. Amir Temurning “Temur tuzuklari” Sharq va Osiyo mamlakatlari sivilizatsiyasiga xos alohida shakldagi konstitutsiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo‘lgan. U shariat qonunlari bilan bir qatorda Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari taqdiriga kuchli ta’sir o‘tkazgan.

Birinchi insoniyat sivilizatsiyalarining paydo bo‘lishi bilan birinchi huquqiy kodekslar ham paydo bo‘ldi. 1877-yilda Mesopotamiyadagi qadimgi Girsu shahri xarobalarida arxeologlar miloddan avvalgi III mingyillikda Lagash qiroli Uruinimgina tomonidan o‘rnatilgan qadimiy qonunlarning matnlarini topdilar. Eng birinchi Konstitutsiyalar Bobilning Hammurapi kodeksi, Afinadagi Solon va Klisfen qonunlari va Angliyaning “Buyuk ozodlik xartiyasi” edi.

Lekin zamonaviy huquqiy ma’noda birinchi Konstitutsiya 1789-yil 4-martda kuchga kirgan Amerika Konstitutsiyasi edi. Bu hokimiyatni ajratish zarurati, inson va mulk huquqlari hamda zolimlarga qarshi isyon ko‘tarish huquqi haqidagi yangi g‘oyalarni yozma ravishda aks ettirgan birinchi Konstitutsiya edi.

AQShdan keyin Polsha (*Polsha-Litva hamdo‘stligi*) va Fransiya 1791-yilda Konstitutsiyalarni qabul qildi. Biroq ularning umri qisqa bo‘ldi. Polsha mustaqilligini yo‘qotdi va Fransiya inqilob avj oldi.

Bugungi kunda Birlashgan millatlar tashkiloti a’zolaridan yettita mamlakat rasman Konstitutsiyalariga ega emas, ammo har bir mamlakat o‘z milliy qonunchiligi uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan qonunlarga ega. Bunday qonunlar adliya tilida “kodifikatsiyalanmagan konstitutsiyalar” deb ataladi. Bu davlatning asosi bo‘lib xizmat qiladigan bitta hujjat emas, ular qonunchilik hujjatlari to‘plami, o‘ziga xos ta’limotlar, huquqiy urf-odatlar va sud presedentlari to‘plamidir.

Buyuk Britaniya qonunlari 1215-yilda qabul qilingan “Buyuk ozodlik xartiyasi” va 1689-yilgi “Huquqlar to‘g‘risidagi bill”ga asoslangan. Shu sababli Buyuk Britaniya bugungi kungacha, qabul qilingan shaklda saqlanib qolgan huquqiy normalarga ega eng qadimgi mamlakat hisoblanadi. Britaniya qonunlarini qabul qilgan sobiq Britaniya mustamlakalari

bo‘lgan Yangi Zelandiya va Kanadada ham vaziyat shunga o‘xshash.

Isroil davlati ham rasmiy Konstitutsiyasiz davlatlar qatoriga kiradi. Isroil davlati o‘zini mustaqillik e’lon qilinganidan beri, Konstitutsiya qabul qilishga urinishlar davom etmoqda. Isroilda Konstitutsiyaning rolini Isroilning asosiy qonunlari – Knesset, hukumat, Prezident, shaxsiy erkinlik va faoliyat erkinligi to‘g‘risida bajaradi.

Mitti San-Marino davlatining Asosiy qonuni 1600-yilda qabul qilingan. Bu Konstitutsiya emas, lekin ko‘p jihatdan Konstitutsiyaga o‘xshash, bu esa ba’zi huquqshunoslarni uni birinchi konstitutsiyaviy huquqiy hujjat deb hisoblashga undaydi.

Liviya va Shvetsiya davlatlarida, an’anaviy ma’noda Konstitutsiyalar yo‘q. Saudiya Arabistonida esa Qur’on mamlakat Konstitutsiyasi deb e’lon qilingan.

Bugungi kunda dunyoda Hindistonning Konstitutsiyasi eng uzun hisoblanadi. Hindiston Konstitutsiyasi 395 ta modda, 12 ta jadval va 103 ta tuzatishdan iborat. Hujjatning inglizcha matnida 117 369 ta so‘z mavjud.

Bugungi kunda dunyoda eng qisqa Konstitutsiya AQSh Konstitutsiyasi hisoblanadi. Bu Konstitutsiyada atigi 4 400 ta so‘zdan iborat. 1787-yildan beri bu Konstitutsiyaga atigi 27 marta o‘zgartirish kiritilgan.

O‘rtacha Konstitutsiyaning ishlash muddati har davlatlarda o‘ziga xosligiga bog‘liq. Ommabop e’tiqodga zid ravishda, konstitutsiyaviy islohotlar turli mamlakatlarda juda tez-tez, o‘rtacha har 15–16 yilda amalga oshiriladi. Rossiya Konstitutsiyasi 26 yildan ortiq vaqt davomida hech qanday katta o‘zgarishlarsiz (*2008 va 2014-yillardagi alohida, “maqsadli” tuzatishlar deyarli bunday deb hisoblanmaydi*) mavjud bo‘lib kelgan. Shuning uchun, xalqaro standartlarga ko‘ra, uni uzoq umr ko‘rgan konstitutsiya deb hisoblash mumkin.

XX asrda bir nechta yirik konstitutsiyaviy islohotlar to‘lqini kuzatildi. Dastlabki ikkitasi Ikkinchi jahon urushidan keyin, uchinchi esa 1960-yillarda Osiyo va Afrikadagi ko‘plab mamlakatlar mustamlakachilik hukmronligidan ozod bo‘lgan paytda sodir bo‘ldi.

Zamonaviy konstitutsiyaviy islohotlar 1990-yillarning boshlarida amalga oshirildi. SSSR va sotsialistik

blok qulaganidan so‘ng 70 dan ortiq yangi konstitutsiyalar qabul qilindi yoki o‘zgartirildi. Bunday o‘zgarishlarning eng so‘nggi yirik to‘lqini 2005–2015-yillar oralig‘ida sodir bo‘ldi.

Oxirgi 25–30 yil ichida ko‘pchilik Yevropa mamlakatlari o‘z Konstitutsiyalarini bir necha bor o‘zgartirdi. Masalan, Norvegiya 1990-yildan beri uch marta, Niderlandiya 1995-yildan beri to‘rt marta va Avstriya 1991-yildan beri yetti marta Konstitutsiyasini o‘zgartirdi. Belgiya 1994-yilda yangi Konstitutsiyalarni, Shveysariya esa 1999-yilda qabul qildi. O‘shandan beri Belgiya Konstitutsiyasi bir necha bor o‘zgartirildi, 50 dan ortiq moddalar o‘zgartirildi. Shveysariya Konstitutsiyasi 2002-yildan beri yana o‘n marta o‘zgartirildi.

O‘zbekiston SSRning birinchi Konstitutsiyasi 1927-yil 30–31-martda sovetlarning 2-Butun O‘zbek qurultoyida qabul qilingan va 10 yil davomida amalda bo‘lgan. Bu konstitutsiya 1927-yil 11-iyulda nashr etilgan. 1937-yil 14-fevralda qabul qilingan ikkinchi O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasi 40 yildan ortiq vaqt davomida amalda bo‘lgan. 1978-yil 19-aprelda 1977-yilgi SSSR Konstitutsiyasi asosida yaratilgan O‘zbekiston SSRning so‘nggi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

Yangi Konstitutsiyani ishlab chiqish zarurati 1990-yil 20-iyunda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining Ikkinchi sessiyasida e’lon qilindi va unda “Suverenitet deklaratsiyasi” qabul qilindi. Sessiyada O‘zbekiston Prezidenti boshchiligidagi Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqish bo‘yicha 64 kishidan iborat komissiya tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Komissiya tarkibiga Oliy Kengash deputatlari, Qoraqalpog‘iston va viloyatlar vakillari, olimlar va mutaxassislar kirgan.

Konstitutsiyaviy komissiya O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ishlab chiqishga qariyb ikki yarim yil sarfladi. 1991-yil 12-aprelda bo‘lib o‘tgan Konstitutsiyaviy komissiya yig‘ilishida 32 nafar yetakchi ekspert va olimlardan iborat ishchi guruh tuzildi. Konstitutsiya bo‘limlarini loyihalash uchun 50 kishidan iborat oltita kichik guruh tuzildi. 1991-yil 31-avgustda O‘zbekiston davlat mustaqilligining e’lon qilinishi va ushbu qonunga konstitutsiyaviy maqom berilishi bilan “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi Konstitutsiyaviy komissiyaning mas’uliyatini yanada oshirdi.

Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqishda inson huquqlari, demokratiya va qonunchilik sohalarida global miqyosda erishilgan yutuqlarni hisobga



olgan holda konstitutsiyaviy rivojlanishning global amaliyoti o‘rganildi. 1992-yil 26-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasi jamoatchilik muhokamasi uchun matbuotda e’lon qilindi. Muhokama taxminan ikki oy davom etdi. Muhokama davomida kiritilgan takliflarga asoslangan tuzatishlar bilan loyiha 1992-yil 26-noyabrda matbuotda e’lon qilindi. Jamoatchilik muhokamasi davomida 6 000 dan ortiq taklif kiritildi va ular komissiya tomonidan ko‘rib chiqish uchun qabul qilindi.

1992-yili dekabr oyida bo‘lib o‘tgan Oliy Kengashning XI sessiyasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish masalasi muhokama qilindi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, yangi Konstitutsiyani ishlab chiqishda O‘zbekiston Birlashgan millatlar tashkiloti hujjatlari, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va xalqaro huquq tomonidan tan olingan boshqa hujjatlarga amal qildi. Shuningdek, Turkiya, AQSh, Yaponiya, Kanada, Germaniya, Fransiya, Portugaliya, Italiya, Shvetsiya, Ispaniya kabi rivojlangan demokratik davlatlar va Hindiston, Pokiston, Misr kabi Sharq mamlakatlarining konstitutsiyaviy amaliyotidan ijodiy foydalanildi.

Sessiyada deputatlar loyihaga taxminan 80 ta o‘zgartirish, qo‘shimcha va aniqliklar kiritdilar. Shunday qilib, 1992-yil 8-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan.

O‘zbekiston Konstitutsiyasining barcha moddalari demokratik davlatni aks ettiradi. Eng muhimi, Konstitutsiya qonunlariga barcha O‘zbekiston fuqarolari to‘g‘ri amal qilishi zarur.

T. MAMATOV,
Serjantlar tayyorlash oliy maktabi
katta o‘qituvchisi,
N. MAMATOVA,
SamDTU o‘qituvchisi

Qonun va ijro

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng davlat suverenitetini mustahkamlash, mamlakat xavfsizligini ta'minlash va strategik manfaatlarni himoya qilish borasida muhim huquqiy asoslarni yaratdi. Shunday asoslardan biri – “Davlat sirlari to'g'risida”gi qonun bo'lib, u davlatning siyosiy, iqtisodiy, mudofaa va boshqa hayotiy muhim sohalari to'g'risidagi maxfiy ma'lumotlarning himoyasini ta'minlaydi.

Ushbu qonunning maqsadi, O'zbekiston Respublikasi manfaatlarini ko'zlab ma'lumotlarni davlat sirlari jumlasiga kiritishning huquqiy va tashkiliy asoslarini belgilashdan, davlat sirlaridan foydalanish va ularni himoya qilish, shuningdek davlat sirlari bilan bog'liq boshqa faoliyatni amalga oshirish chog'ida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

DAVLAT SIRLARI NIMA?

Qonunda davlat sirlari tushunchasi aniq belgilangan. Unga ko'ra, davlat sirlari **O'zbekiston Respublikasining xavfsizligi va manfaatlariga daxldor bo'lgan, tarqalishi davlat manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan maxfiy ma'lumotlardir.** Bunday ma'lumotlar, odatda quyidagi yo'nalishlarga taalluqli:

- mamlakat mudofaasi va harbiy faoliyatiga doir ma'lumotlar;
- tashqi siyosat va tashqi iqtisodiy sohadagi davlat sirlari jumlasiga kiritiladigan ma'lumotlar;

DAVLAT SIRLARINI HIMOYA QILISH —
MAMLAKAT XAVFSIZLIGINING MUHIM KAFOLATI

- razvedka, kontrrazvedka, tezkor qidiruv faoliyati va davlat xavfsizligi faoliyatiga taalluqli ma'lumotlar;
- iqtisodiyot, ta'lim, fan va texnika sohasiga oid maxfiy ma'lumotlar.

Bu kabi ma'lumotlar davlat manfaatlarini himoya qilish maqsadida **maxfiylashtirilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar ro'yxati shakllantiriladi.**

KIMLAR DAVLAT SIRLARIGA
OID MA'LUMOTLARDAN VOQIF
BO'LISHI MUMKIN?

Qonunga muvofiq, davlat sirlariga oid tegishli ma'lumotlarga ega bo'lish **faqat qonunda ko'zda tutilgan tartibda ruxsat olingan shaxslargagina** beriladi.

DAVLAT SIRLARINI HIMOYA
QILISH MEXANIZMLARI

Davlat sirlarini himoya qilish tashkiliy, huquqiy, muhandislik-texnik, kriptografik va boshqa mexanizmlar orqali ta'minlanadi.

DAVLAT SIRLARINI HIMOYA
QILISH MEXANIZMLARI NIMA
UCHUN ZARUR?

Sababi juda oddiy: **axborot – kuch.** Ba'zan birgina davlat sirlariga oid ma'lumotning oshkor etilishi davlat xavfsizligiga, iqtisodiyotiga

yoki xalqaro munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois maxfiy ma'lumotlar qat'iy tartibda saqlanadi.

HARBIY XIZMATCHILAR VA
QUROLLI KUCHLAR ISHCHI-
XIZMATCHILARI NIMALARGA
E'TIBOR BERISHI KERAK?

Bugun axborot tez tarqaladigan davr. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali har qanday xabar birzumda keng ommaga yetib boradi. Binobarin, hozirgi kunda dunyoda tez sur'atlarda o'zgarib borayotgan geosiyosiy vaziyatlarni inobatga olgan holda shaxsiy tarkib davlat sirlariga oid hamda shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish choralari ko'rish zarur bo'ladi.

Shuning uchun:

- davlat tomonidan qo'riqlanadigan ma'lumotlarni tarqatmaslik;
- harbiy xizmatchining uni harbiy xizmatga aloqadorligini tasdiqlovchi ma'lumotlarini to'g'ridan to'g'ri oshkor qilish;
- ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy sahifalariga harbiy kiyim-kechakdagi foto va videotasvirlarni joylash;
- ijtimoiy tarmoqlarda Mudofaa vazirligi kundalik va jangovar faoliyatga oid ma'lumotlarni yoritishga qaratilgan virtual guruhlar tuzish va bloggerlik faoliyatini olib borish;

- xizmat faoliyatiga oid ma'lumotlarni ko'rsatish va muhokama qilish;
- qonunchilikka zid bo'lgan diniy va siyosiy mavzulardagi muhokamalarda ishtirok etish va ularning tarqalib ketishiga sababchi bo'lish;
- jangovar texnika va boshqa harbiy infratuzilma obyektlari fonida tushirilgan xizmat faoliyatiga oid turli foto, audio, videofayllar va ma'lumotlarni joylashtirish;
- davlat sirlariga oid bo'lishi mumkin bo'lgan mavzularda ehtiyot bo'lish juda muhim. Bu nafaqat harbiy xizmatchilar, balki oddiy internet foydalanuvchilariga ham taalluqli. Davlat sirlari sohasidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor deb topilgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

“Davlat sirlari to'g'risida”gi qonun O'zbekistonning davlat xavfsizligi tizimida muhim o'rin tutadi. Bu qonun orqali davlat o'zining hayotiy muhim manfaatlarini himoya qiladi, xavfsizlik tizimini mustahkamlaydi va davlat sirlariga oid axborotning ruxsatsiz tarqalishining oldini oladi. Har bir fuqaro, ayniqsa davlat xizmatchilari ushbu qonun talablari va mas'uliyatini chuqur anglab, unga rioya etishi zarur.

Polkovnik Y. MURADOV,
O'zbekiston Respublikasi
Qurolli Kuchlari
Bosh shtabi Sakkizinchi
boshqarma boshlig'i

Minifutbol

FAXRIYLAR O'RTASIDA
HARBIY PROKUROR KUBOGI

Prezidentimizning “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida”gi farmoyishi asosida yurtimiz bo'ylab Bosh qomusimiz qabul qilingan sana munosabati bilan keng qamrovli tadbirlar tashkil etilmoqda.

Bu borada harbiy prokuratura organlari tomonidan ham joylarda uchrashuvlar, muloqotlar, sport musobaqalari, intellektual o'yinlar va boshqa amaliy tadbirlar jadal o'tkazib kelinmoqda.

Mana shunday tadbirlardan biri Toshkent shahrida **O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tashabbusi bilan** O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi hamkorligida Qurolli Kuchlar faxriylari o'rtasida **ilk bor harbiy prokuror kubogi** uchun tashkil etilgan minifutbol turniridir.

Unda generallar, katta va kichik ofitserlar, kontrakt bo'yicha serjant va oddiy askarlar tarkibida xizmatni

o'tab, bugun nafaqada bo'lishiga qaramay, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlariga beminnat hissa qo'shayotgan, ta'bir joiz bo'lsa, o'zlari hayotiy ibrat bo'lib kelayotgan barcha faxriylar ishtirok etdi.

Ikki kun davom etgan musobaqalarda Mudofaa va Ichki ishlar vazirliklari, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati, DXK Chegara qo'shinlari, O'zbekiston “Veteran” jangchi-faxriy va nogironlar birlashmasi hamda harbiy prokuratura terma jamoalari tarkibida faxriylar o'zaro bellashdi.

Turnir natijalariga ko'ra, “Jasorat” terma jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritdi. “Chegarachi” va “Posbon” jamoalari faxrli ikkinchi va uchinchi o'rinlarni egalladi.

Shuningdek, yuqori natija ko'rsatgan o'yinchilar “Eng yaxshi to'purar”, “Eng yaxshi darvozabon” va “Eng yaxshi o'yinchi” nominatsiyalari sohibi bo'ldi.

Taqdirlash marosimida g'olib va sovrindorlarga **Bosh prokuror o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori O. Xolboyev**, shuningdek O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi rahbariyati hamda qator hamkor tashkilotlar vakillari tomonidan diplom va esdalik sovg'alar tantanali ravishda topshirildi.

Ta'kidlash joiz, ushbu turnir bugun nafaqada bo'lib, yurtimizning turli go'shasida nevara-evaralar tarbiyasi bilan turmushning shirin tashvishlarida yurgan faxriylarni bir joyda diydorlashtiribgina qolmay, yoshlarga uzoq va sog'lom yashash hamda muvaffaqiyatga erishishda sportni kanda qilmaslik to'g'risidagi azaliy haqiqatning hayotiy isbotini yana bir karra namoyon etdi.

Adliya podpolkovnigi
G'iyosiddin RAHMONOV,
O'zbekiston Respublikasi
Harbiy prokurorining
yordamchisi

Harbiy jang san'ati

SULTON JALOLIDDINNING ERON VA KAVKAZ
JANGLARIDA QO'LLAGAN STRATEGIYASI

Sulton Jaloliddin 1227-yil 5-sentabrda Isfaxon yaqinida Toynol no'yon boshchiligidagi 30 ming kishilik mo'g'ul bosqinchilariga qarshi jangga kiradi. Ushbu jangda sulton qo'shinining o'ng qanotidagi otliq bo'linmalar misli ko'rilmagan jasorat ko'rsatib, mo'g'ullarni Xuroson hududiga qadar ta'qib etib, yanchib tashlaydi. Ushbu jangda tomonlar qo'shinlari soni haqida ma'lumot keltirilganda mo'g'ul askarlarining soni borasida aniq raqam ko'rsatilmagan. Faqat Jaloliddin hali to'laligicha kuchga to'lmagan vaqtlaridayoq (*Parvon jangida*) Chingizxon unga qarshi 35 ming kishilik qo'shinni saflantirgani bizga ma'lum.

Keyinchalik sulton Jaloliddinning janglarda o'rttirgan tajribasi va kuch qudratga to'lgani hisobga olinsa, yetarlicha natijaga erishish uchun kamida **30-35 ming** kishilik qo'shinni saflagan. Biroq manbalarda ushbu jangdan oldin Jaloliddinning qo'shini soni **100 ming** kishidan iborat deb bo'rttirib ko'rsatilgan. Bu haqiqatdan yiroq. Chunki sulton xizmatida muntazam jangga shay turadigan **5 000 gacha** askarning mavjudligi hamda 1227-yilga qadar ketma-ket kechgan og'ir janglar tufayli qo'shini soni kamayib borgani, jang boshlanishi bilanoq chap qanotni boshqarayotgan G'iyosiddin Pirshoh askarlari bilan maydonni tashlab qochganini hisobga olsak, viloyatlardan yig'iladigan askarlar hisobiga bu jangda **40 ming** atrofida askari bo'lgani haqiqatga bir muncha yaqindir.

To'g'ri, Jaloliddinning sarkardalik qobiliyatiga hech qanday shubha yo'q, albatta. Ammo mazkur jangda sultonning harakatlarida ba'zi kamchiliklar ko'zga tashlanadi. Jumladan, qo'shin qanotlarini joylashtirganda ularning orasidagi masofa anchagina uzoq bo'lib, bir-birining harakatlaridan bexabar bo'lib qoladilar. Bu esa G'iyosiddinning jang maydonini tashlab qochganidan keyin chap qanotga qimmatga tushadi. Ya'ni o'ng qanot askarlari chap qanotni xuddi o'zlari singari olg'a harakatlantirgani deb o'ylab, ta'qibni oxiriga qadar davom ettiradi hamda kerakli vaqtda o'ng qanot askarlari chap qanot va markazga yordam ko'rsata olmaydi.

Yana bir kamchiligi shunda ediki, Jaloliddin jang borishini yuqoridan kuzatib, vaziyatni nazorat ostiga olish o'rni bahoirligiga erk berib, har doimgidek oldingi saflarda jangga otiladi. Bu esa bo'linmalarni harakatlanishida tartibsizliklarni yuzaga keltiradi.

Mazkur janggohda sulton o'z qo'shinining o'ng qanotini muvaffaqiyatli harakatini ko'rib, markazga o'zi bosh bo'ladi va mo'g'ul qo'shinining markaziga hujumga o'tib, ularni joyidan siljitishga muvaffaq bo'ladi.

Biroq mo'g'ullarning bunday chekinishi yolg'ondakam, sulton qo'shinini pistirmaga qadar yetaklab kelib, ularni tuzoqqa tushirish edi. Pistirmada turgan mo'g'ul qo'shini sultonning chap qanotini bir zarbadayoq oyog'ini yerdan uzib, ularni markazga kelib qo'shilishga majbur qildi. Shundan keyin mo'g'ullarning pistirmadagi bo'linmasi va chekinayotgan markaziy qism ortga qaytib, sulton Jaloliddin qo'shinini qurshab oladi.

Qurshovda qolgan Jaloliddin qamalni yorib chiqishga muvaffaq bo'ladi va keyinchalik Isfaxonni qamal qilishga chog'langan mo'g'ullarga boshqatdan zarba berib, ularni chekinishga majbur qiladi.

1228-yilda Jaloliddinning Gruziyaga uchinchi yurishi boshlandi. Bu yurish sabablari turli manbalarda turlicha

keltirilgan. Ammo yuqorida ta'kidlaganimizdek, Jaloliddinning harbiy yurishlarining to'liq tafsiloti tadqiqot mavzusiga kirmaydi.

Shuning uchun bu yurish davrida Jaloliddin Manguberdi qo'llagan harbiy strategiya va taktikaning mazmun-mohiyatini ochib berish lozim.

Umuman olganda, bu yurishning bosh sababi Gruziyaning ilgari mag'lubiyati qasosini olishga harakati bo'lgan va ularga javob sifatida Jaloliddinning yurish uyushtirishi haqiqatga to'g'ri keladi.

Chunki urushni boshlagan gruzinlar, avvalo, Nacharmagevi degan joyda katta qo'shin to'plab, keyin Jaloliddinga qarshi yurish boshlagan. Jaloliddin esa bu davrda Bolnisida qarorgoh qurgan edi. Natijada shu joyda ikkala qo'shin to'qnashib, jang boshlanadi.

Nasaviyning ma'lumoticha, bu jangda Gruziya qo'shinlari soni **40 000 dan** oshiq bo'lgan. Jaloliddin qo'shini nisbatan kam bo'lgan. Sababi Juvayniyning ma'lumotiga qaraganda, Jaloliddin jangdan oldin majlis o'tkazganda, uning munajjimi gruzin qo'shinlari Xorazm qo'shini soniga nisbatan o'n baravar ko'p bo'lgani uchun ularni suv yo'lini to'sib qo'yish bilan yengishni maslahat beradi.

Ikkinchidan, yana shu Juvayniyda keltirilishicha, Jaloliddin jangdan oldin yakkama-yakka kurashni taklif qilgan. Bu ma'lumotdan ham Jaloliddin qo'shinlarining soni kamligi ko'rinib turibdi. Chunki Jaloliddin yakkama-yakka jang orqali jang taqdirini hal qilmoqchi bo'lgan. Bolnisi yonida jang tafsilotlari unchalik aniq emas. Ammo mavjud ma'lumotlardan jang qanday kechgani xususida ba'zi bir mulohazalar yuritish mumkin.

Nasaviy ma'lumotlariga qaraganda, jang boshlanishi bilan har ikkala taraf ilg'or qismlari to'qnash keladi. Jang maydonida har ikki tomon an'anaviy tarzda saf tortadi. Ya'ni markaz, o'ng va chap qanotlar, ilg'or hamda zaxira qismlar bilan, biroq Jaloliddin qo'shinida zaxira bo'lgani dargumon. Sababi uning qo'shini soni ancha oz bo'lgan.

Bu jangda ham son jihatdan ustun bo'lgan raqib ustiga nisbatan ilg'or qismni faol harakatlantirib, dushman safini tarqatib chekinishga majbur qiladi. Shundan keyin ilg'or qism ketidan barcha bo'linmalar hujumga o'tadi. Oqibatda gruzinlarning qolgan kuchlari jang maydoni bo'ylab ommaviy ravishda chekina boshlaydi.

Shunday qilib, **bu jangda ham Jaloliddin Manguberdi qo'shini soni ancha oz bo'lishiga qaramay, dushmanlari ustidan g'alaba qozondi va tajribali sarkarda sifatida tarixga o'z nomini muhrlab qo'ydi.**

Sulton Jaloliddin jang oldidan qo'shinning jangovar qobiliyatini oshirish maqsadida uning ruhiyatiga ta'sir ko'rsatishni yaxshi bilgan. Bu gohida jangdan oldin raqibni yakkama-yakka olishuvga chaqirish orqali ro'y bersa, boshqa holatda jangdan avval o'tkaziladigan kengashda, dushmanning jiddiy xavf solib turganini bilib tursa-da, o'zini ularni mensimayotganday

ko'rsatib, boshqa mavzulardan gap ochish orqali lashkarboshilar va amirlarni tinchlantira olgan.

Juvayniy ma'lumotlariga ko'ra, 1227-yili yuqorida tahlil qilingan Bolnisi jangi avvalida sulton raqib tomon bilan alohida bahodirlar jangini tashkil qilishni so'ragan. Shundan so'ng u gurzilar tomondan tog'dek pahlavonni va uning uch o'g'lini, undan keyin Aznavr unvonli pahlavonni mag'lub qiladi. Bu esa sulton qo'shini ruhiyatiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularni g'alabaga ishonchini orttirgan.

An-Nasaviy keltirgan ma'lumotiga qaraganda, Jaloliddin 1227-yili Isfaxon yaqinida mo'g'ul qo'shini bilan to'qnashuvdan oldin amir va xonlar bilan maslahatlashish uchun uchrashuv belgilaydi. Uchrashuv chog'ida sulton amir va xonlarga ancha vaqtgacha mo'g'ullarga aloqasi yo'q ishlar haqida gapirdi. Bu bilan u o'zini mo'g'ullarni mensimayotgandek ko'rsatdi va huzuriga yig'ilganlarni tinchlantirishga urindi. Mo'g'ullarning kelishi jiddiy va qo'rquv uyg'otadigan yangilik emasligini anglatib, bu bilan yig'ilganlarga dalda berdi, ko'nglini ko'tardi.

Jaloliddinning raqiblariga nisbatan qo'llagan va doim samara bergan usullaridan yana biri bu qo'qqisdan, dushman kutmagan vaqtda zarba berish usulidir.

Bu usulni dastlab Jaloliddin Hindistonda Kubachaga qarshi qo'llaydi. Ya'ni Juvayniyning ma'lumotlariga ko'ra, Uchada joylashgan Kubachaning **20 ming** kishilik qo'shiniga qarshi O'zbek Toyi boshchiligidagi yuborilgan **7 ming** kishilik qo'shin kechasi qo'qqisdan hujumga o'tib, hali qo'lini quroliga tegizishga ulgurmagan dushmanni chekinishga majbur qiladi. Ushbu g'alaba Jaloliddin Manguberding harbiy lashkarboshilik qobiliyati qay darajada kuchli ekanini ko'rsatish uchun yetarli. Chunki dushman qo'shini soni ancha ustun bo'lganiga qaramay, u kutilmaganda, qo'qqisdan zarba berish usulini qo'llab, dushmanni yengdi.

Xuddi shu usulni sulton Hamadonda Ig'an Toisiyga ham qarshi qo'llaydi. Sulton Iroqda hokimiyatni qo'lga olgach, xorazmshohlarga tegishli bu hududda mo'g'ullarga qarshi tura oladigan kuchli davlat barpo etish uchun Ozarbayjonga qarab yurdi.

Ammo uning Ozarbayjonga yetib kelishida bir qancha to'siq mavjud edi. Dastlab sultonning bu harakati Xorazmshohlar davlati qulashidan manfaatdor xalifa an-Nosir Iroq va Ozarbayjonda o'z ta'sirini kuchaytirishga harakat qiladi.

Jaloliddinning Hindistondan avval Iroqqa, so'ng Ozarbayjonga qaytishi hamda uning kuch-qudrati va obro'-e'tiborining oshib borishi xalifa an-Nosirni bezovta qila boshlaydi va u qanday bo'lmasin, Sultonni yo'q qilish niyatida bo'ladi.

Bu tadbirni amalga oshirish uchun xalifa Ozarbayjon hukmdori, Pirshohning tog'asi Ig'on Toisiy Jaloliddinga qarshi chiqishga ko'ndiradi. Ig'on Toisiy o'zining 50 ming qo'shini bilan Ozarbayjonga yo'l olgan Jaloliddinga peshvoz yurib, ular Hamadonda to'qnashadi.

Bu jangda ham Jaloliddin o'zining jasorati va mohir sarkardaligini namoyish etib, oz sonli qo'shini bilan raqibini tor-mor qilishga erishadi. Ig'on Toisiy esa Jaloliddindan shafqat so'rab, taslim bo'ladi va uning qo'shini Jaloliddin qo'shinlari tarkibiga kiritiladi.

Polkovnik Feruz KAMILOV, Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti kafedra boshlig'i, dotsent



Dolzarb masala

TIBBIYOTDA SHAFFOFLIK, KORRUPSIYASIZ DAVOLASH SARI QADAM

Sog'liqni saqlash – jamiyat farovonligi va davlat barqarorligining eng muhim omillaridan biri. Dori-darmon, tibbiy jihozlar va pullik tibbiy xizmatlar kabi ahamiyatli sohalarida shaffoflik va halollikni ta'minlash nafaqat tibbiyot xodimlari, balki butun jamoatchilikning manfaatiga xizmat qiladi.

Ammo bu sohaning yuqori moliyaviy aylanmasi, ko'p bosqichli ta'minot zanjiri va murakkab boshqaruv tizimi korrupsiya xavfini oshiradi. Shuning uchun tibbiy vositalarni taqdim etishda korrupsiyaga qarshi qat'iy mexanizmlarni joriy etish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

KORRUPSIYANING YASHIRIN SHAKLLARI

Tibbiy vositalar aylanmasidagi korrupsiya bir qator jarayonlarda namoyon bo'lishi mumkin. Birinchidan, dorilar va jihozlarni xarid qilish jarayonida tender natijalarini soxtalashtirish, narxlarni sun'iy oshirish yoki muayyan kompaniya manfaatini himoya qilish holatlari kuzatilishi ehtimoli bor.

Ikkinchidan, sifat nazorati yetarlicha tashkil etilmagan bo'lsa, past sifatli yoki texnik talablarga javob bermaydigan mahsulotlar tibbiyot muassasalariga kirib kelishi mumkin.

Uchinchidan, pullik tibbiy xizmatlar ko'rsatishda narxlarni asossiz oshirish, xizmatlarni

muhitini ta'minlaydi. Barcha takliflar, baholash mezonlari va tender natijalari ommaga e'lon qilinishi unga ishonchni oshiradi.

Shuningdek, dorilar va jihozlarning haqiqiyliigi va sifati ustidan mustaqil laboratoriya nazoratini kuchaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, har bir mahsulotning elektron identifikatsiyasi (UDI) orqali uning kelib chiqishi, partiya raqami va harakati nazorat qilinishi lozim.

PULLIK XIZMATLARDA ADOLAT VA HISOBDOIRLIK

Pullik tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi muassasalar uchun eng muhim masala – rasmiy tariflar va xizmat turlarining aniq belgilanishi. Har bir bemorga elektron chek berilsa, xizmatlar va uskunalaridan foydalanish ma'lumotlari yagona elektron bazaga kiritilsa, noqonuniy pul yig'ish holatlari kamayadi.

Bundan tashqari, bemorlar uchun qulay va ishonchli shikoyat qilish mexanizmlarini joriy etish ham amaliy natija beradi.

XODIMLARDA ANTI-KORRUPSION MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

Tibbiyot xodimlari va ma'muriy mas'ul shaxslar uchun majburiy etika treninglari, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha nazorat, hamda rahbar kadrlar o'rtasida ochiq deklaratsiya tizimini joriy etish – korrupsiyaning ichki omillarini kamaytiradi. Xodimlarni rag'batlantirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash ham ularni yashirin kelishuvlarga moyillikdan uzoqlashtiradi.

JAMOATCHILIK NAZORATI – HAL QILUVCHI KUCH

Korrupsiyaga qarshi samarali kurashda jamoatchilikning ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati tashkilotlari va faol fuqarolar tomonidan xaridlar, shartnomalar va tibbiy xizmatlar haqidagi ma'lumotlarning tahlil qilinishi tizimdagi kamchiliklarni barvaqt aniqlash imkonini beradi. Bu esa davlat organlari va tibbiyot muassasalarida hisobdordlikni kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, tibbiy vositalar aylanmasida korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik bu butun tizim bo'ylab kompleks islohotlar, ochiqlik, shaffoflik va mas'uliyat madaniyatini shakllantirishdir. Dori-darmon sifati, tibbiy jihozlar ishonchligi va pullik xizmatlarda adolatni ta'minlash aholining salomatligini va davlatga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Shu bois har bir tibbiyot muassasasi, har bir mas'ul tashkilot va har bir mutaxassis bu jarayonda o'z mas'uliyatini his qilishi va korrupsiyaga yo'l qo'ymaslikni o'zining kasbiy burchi sifatida qabul qilishi zarur.

**Podpolkovnik
Abduvohid BOZOROV,
Mudofaa vazirligi Markaziy
harbiy klinik hospitali
boshlig'ining o'rinbosari**

sun'iy ravishda ko'paytirish yoki rasmiy hisob-kitobdan tashqari mablag' qabul qilish kabi holatlar korrupsiyaning yashirin shakllarini keltirib chiqaradi.

SHAFFOFLIK VA OCHIQLIK – ENG SAMARALI TEJOVCHI OMIL

Davlat va xususiy tibbiyot muassasalarida shaffof jarayonlarni yo'lga qo'yish korrupsiya xavfini sezilarli darajada kamaytiradi. Avvalo, tibbiy vositalarni xarid qilish jarayonlarini elektron platformada amalga oshirish tenderlarda adolat va raqobat



SAHNADA TANK, HARBIYDA

“Mudofaa vazirligi Ma'naviyat va madaniyat departamentida mudofaa vaziri kubogi uchun an'anaviy tarzda o'tkaziladigan “Quvnoqlar va zukkolar” ko'rik-tanlovining yakuniy bosqichi bo'lib o'tdi. Ushbu tanlov har yili tashkil etilib, harbiylar orasida ijodiy salohiyatni oshirish, ma'naviy rivojlanish va yumor orqali ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.



Finalga yil davomida harbiy okrug va qo'mondonliklardan saralangan eng iqtidorli 9 jamoa hamda 4 oliy harbiy ta'lim muassasasi jamoasi bellashdi. Tanlovda ishtirok etuvchilardan hayotiy vaziyatlar, harbiy muhitdagi voqealar va jamiyatda uchraydigan illatlarni sahnada namoyish etish talab qilindi.

Tanlov uchta shart asosida tashkil etildi va har bir shart 5 ballik tizim bo'yicha baholandi. Hakamlar hay'ati jamoalarning chiqishini xolislik va shaffoflik asosida baholashga e'tibor qaratdi. Tanlovning baholash mezonlari qat'iy belgilangan bo'lib, improvizatsiya, mavzularga ijodiy yondashuv, muammolarni yumor orqali yoritish va sahna madaniyati eng asosiy jihatlar sifatida e'tiborga olindi. Bu mezonlar asosida har bir jamoa o'z iqtidori va mahoratini namoyish etdi.

Natijalar e'lon qilindi. Harbiy okrug va qo'mondonliklar miqyosida 3-o'rin Markaziy harbiy okrugning “Artilleriya” hamda Mudofaa vazirligi qo'mondonligining “Qanotli shamshirlar” jamoalariga nasib etdi. 2-o'rin Janubi-g'arbiy

maxsus harbiy okrugning “Tankchilar” jamoasiga berildi. 1-o'rinni esa Mudofaa vazirligi qo'mondonligining “Fidoyilar” jamoasi egalladi.

Oliy harbiy ta'lim muassasalari orasida eng yuqori natija Harbiy xavfsizlik



Muallif suratga olgan



MAHORAT, YUMORDA SHIDDAT



va mudofaa universiteti Quruqlikdagi qo'shinlar instituti jamoasi tomonidan qo'lga kiritildi va ular 1-o'rinni qo'lga kiritdi. 2-o'rin Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti jamoasiga, 3-o'rin esa Axborot texnologiyalari

va aloqa harbiy instituti jamoasiga nasib etdi.

Tadbir yakunida g'olib va sovrindorlar diplom, ko'chma kubok va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Shuningdek, Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va

raqs ansambli xonandalari vatanparvarlik qo'shiqlari orqali ishtirokchilar va tomoshabinlarning kayfiyatini ko'tardi.

“Quvnoqlar va zukkolar” ko'rik-tanlovi nafaqat ijodiy qobiliyatni namoyish qilish,

balki harbiylar orasida birdamlik va hamjihatlikni mustahkamlashga, ma'naviy va madaniy rivojlanishga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Tanlovda ishtirokchilarning mahorati, qobiliyati hamda ijodiy salohiyati ushbu tadbirning asosiy xususiyatlari sifatida yodda qoladi.

Sahnada tank, harbiyda mahorat va yumorda shiddat ushbu tanlovning asosiy belgisi bo'lib, ishtirokchilar va tomoshabinlar xotirasida uzoq vaqt saqlanadi. Mudofaa vaziri kubogi uchun o'tkazilgan ushbu final bahsi harbiylik va ma'naviy tarbiyani uyg'unlashtirgan, zamonaviy talqindagi madaniy tadbir sifatida e'tirof etildi.

Sherzod SHARIPOV,
“Vatanparvar”



Chegara qo'shinlarida

So'nggi yillarda mamlakatimizda sportga bo'lgan e'tibor samarasi o'laroq, sportchilarimiz jahon miqyosida o'tkazilayotgan ko'plab nufuzli musobaqalarda ishtirok etib, davlatimiz bayrog'ini yuksaklarga ko'tarmoqda.

Xitoy Xalq Respublikasining Shanxay shahrida bo'lib o'tgan tosh ko'tarish bo'yicha jahon chempionatida terma jamoamiz safida yurtimiz sha'nini himoya qilgan bir guruh O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy sportchilari Toshkent xalqaro aeroportida tantanali kutib olindi.

Harbiy orkestr sadolari ostida tashkil etilgan ushbu tadbirda Chegara qo'shinlari mas'ullari, sportchilarning safdoshlari va yaqinlari jam bo'ldi. Unda so'z olganlar bugun yurtimizda sportni rivojlantirish va aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish maqsadida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli chora-tadbirlar xususida to'xtalib, erishilayotgan yuqori natijalar sportchilarimizga yaratilayotgan shart-sharoit va qulayliklar hamda ko'rsatilayotgan yuksak e'tiborning natijasi ekanini alohida ta'kidladi.

Dunyoning 25 ta davlatidan 450 nafarga yaqin sportchi ishtirok etgan ushbu nufuzli musobaqada hamyurtlarimiz tosh ko'tarishning uzun sikl, siltab ko'tarish va dast ko'tarish turlari bo'yicha g'oliblik uchun bahs olib bordi.

– Jamoamiz bilan umumiy hisobda 6 ta oltin, 4 ta kumush va 5 ta bronza medalni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldik. Bunday yuqori natijaga faqat tinimsiz mehnat, sabr-bardosh va mashqlar yordamida erishish mumkin, – deydi mayor Hamidullo Saidnazarov. – Chunki raqiblarimiz juda kuchli bo'lgani uchun musobaqalar shiddatli kechdi. G'alaba qozonganida birinchi bo'lib onamga qo'ng'iroq qildim. Davlatimiz bayrog'i ko'tarilib, madhiyamiz yangraganida qalbimdan kechgan hislarni so'z bilan ifodalay olmayman. Bugun biz sportchilarga yaratilayotgan shart-sharoit va imkoniyatlardan unumli foydalanib, kelgusida yuqori natijalarga erishgan holda hamisha zafar quchib qaytishga va'da beramiz.

Shu kuni oltin medal bilan qaytgan farzandini bag'riga bosgan Hamida ayaning qalbi cheksiz faxr va iftixor tuyg'ulariga to'ldi.

– O'g'lim Hamidullo bolaligidan sportga qiziqadi. Shu sababli harbiylik kasbini tanlagan. Bugun chempion bo'lib qaytganini ko'rib, farzandim bilan faxrlanib ketdim. O'g'lim qatori g'alaba qozonib kelgan hamma sportchilarni, ularning yaqinlarini chin qalbidan tabriklayman. Bolalarimizga shunday qulay shart-sharoitlarni yaratib berayotgan Prezidentimizga hamma onalar nomidan minnatdorlik bildiraman, – deydi Hamida Xamrayeva.

Albatta, yurtimiz bayrog'ini yuksaklarga ko'tarayotgan bunday alpqomat Vatan o'g'lonlarining bugungi erishayotgan yutuqlari ularning ota-onalari qatorida barchamizga faxr va iftixor tuyg'ularini bag'ishlaydi.

Mayor
Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari



“CHEMPION O'G'LIM BILAN FAXRLANAMAN!”



Keling, kitob o'qiymiz!

Enam der: “Nafs – fitna. Gilam ostidan
Chiqsa vayron etar uy to‘ringizni...
Omon qolmoq uchun uning dastidan,
Bolalarim, seving, bir-biringizni...”

“ODAMLAR, SEVINGLAR BIR-BIRINGIZNI!”



Har gal yozuvchi Qo‘chqor Norqobilning biror hikoyasini o‘qiganimda o‘quvchilarimizga tavsiya qilish haqida o‘ylab qo‘yardim. Negadir u urush mavzusiga ko‘proq murojaat qiladi, degan yanglish o‘yga borgan ekanman. Boshqalarda qanday bilmadim, ba‘zan urush mavzusidagi asarlarni chetlab o‘tgim keladi. Yosh o‘tishi bilan bog‘liq holatmikan? Sevgi to‘la sahifalarida ham og‘riq tashiyotganga o‘xshaydi. Ba‘zan yozuvchining yuragi qanday bardosh bersa, degan o‘y o‘tadi. Chunki ijodkor o‘zi bilgan, ko‘rganlarini yuragidan kechirib, qog‘ozga to‘kadi. Bizni mutaassir qilgan voqealarning qog‘ozdan yuragimizga ko‘chishi ham shundan.

Aziz o‘quvchilarimizga yozuvchining qayerda tug‘ilib o‘sganini aytishni lozim topmadik. Chunki u allaqachonlar sarhad bilmas adabiyot tufayli qardosh o‘lkalarda ham o‘zbek adibi, dramaturg sifatida tanilgan. Bir qator xalqaro mukofotlar sohibi.

Nima uchun Qo‘chqor Norqobil asarlarini o‘qish kerak? Uning ijtimoiy tarmoqdagi sahifasidagi **“Buyuklar bolaligi haqida hikoyalar” dan birini o‘qiymiz:**

“GABRIEL GARSIA MARKES”

– Janob Markes, ijod uchun eng muhimi nima?
– Bolalikning ovozi eshita bilish...
– Tushunmadim...
– Nimasini tushunmaysan?
– Bolalik gapirib turadi, yozuvchi uni qog‘ozga tushiraveradi.
– Hamma zo‘r yozuvchilar ham shunday qilishadimi?
– Ha, deyarli hammasi. Biroq buni sir saqlaydilar.
– Nega?
– Bolalikda uyg‘ongan tiniq hissiyotlar hanzu jonlariga ora kirayotganini oshkor qilishni istamaydilar...”

Ha, uning ijodida ham “bolalikda uyg‘ongan tiniq hissiyotlar” aks etib turadi. Asarlarini, hech bo‘lmaganda, bittagina hikoyasini o‘qib ko‘ring-a, masalan, “Eshikka qadalgan nigoh”ni. To‘g‘ri, og‘ir hikoya, biroq bir toza yurak bor-da.

Qo‘chqor Norqobilning ba‘zi hikoyalari xuddi qo‘shiqqa o‘xshaydi, xalq qo‘shiqlariga. O‘zbek tili juda boy. Uning bir boyligi shevalar, ko‘rki – ota so‘zlarimiz, maqollar. Barcha adiblar ham xalq maqollaridan foydalanadi. Ammo yozuvchi ijodida bu hadd-u a‘losiga chiqqan. Qo‘shiq kabi o‘qilishi ham ehtimol shundan bo‘lsa kerak. Bular bir qator ilmiy ishlarga arziydi. **“Tshdan ketuvdi, lekin o‘lmovdi...”**

hikoyasidan o‘qiymiz:

“Na dakki, na chakki bo‘ldi – o‘z xohishi bilan ishdan bo‘shadi.

So‘zida sobit turdi. Yo‘rg‘asi yo‘rtanglab, toychoq‘i toyinmay, arg‘umog‘i burni bulutga tegib, oyog‘i uzangidan uzilmay yurgan Sodiq Turg‘unovichday arbobning ko‘rsatgan bu hunaridan ayrim martabaga mute tengdosh-u tengur to‘ralarning

to‘rvasiga qurt tushdi...”

Qiziq, shu hikoyani birorta xorijiy tilga tarjima qilib bo‘larmikan?! Tarjima ham ishmi? Ayniqsa, shu kunlarda sun‘iy intellekt istalgan maqola, hatto she‘rlar yozib bera oladigan bir pallada. Nazarimda, bu hikoyaning tarjimasi, qaysi tilda bo‘lsa ham, shirali suvi siqib olingan anor kabi bo‘ladi, undan avlo bo‘lmaydi.

“Qishloq odamlari” turkumidan

“Toshgul xolani jin chaldi”

hikoyasidan o‘qiymiz:

“Xayri xolanikida tadbir-u tavoze – “Bo‘mishgul” bo‘lyapti.

Xayri xola ko‘z qiri bilan razm soldi – etagi butunning bari shu yerda. Oynali ayvonda maynaday chug‘ur urgan ahli ayol biri qo‘yib, biri olib gap sotadi.

Xullas, mahalla-ko‘yning xotin-xalaji jam, birgina Toshgul kam. Xola poygakda patak kalishini endigina yechayotgan kelini Qirmizgulga so‘roq otdi:

– Toshgulni aytmaganmiding?
– Aytuvdim ena, aytuvdim. – Kelin beshik tebratarday tebranib turdi. – Kelmabdi-da...

– Bor, yana borib ayt! Enam chaqiryapti, de. Tavba, qush begi bilan shavla yemabdi...

Sondan chiqsa ham eldan chiqmasin. Bu gapimni ham ayt!”

Hikoyada “Bo‘mishgul” qanday tadbir ekaniga izoh berilgan. Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida yashovchilar buni izohsiz ham nima ekanini biladilar. Muhimi bu emas, “etagi butun” degan iboraga e‘tibor berdingizmi? Yoki “qush

begi bilan shavla yemabdi”.

Bular hammasi emas, bunday noyob, o‘xshashi yo‘q iboralar, xalq maqollari shu qadar mahorat bilan singdirilganki, o‘zingizni o‘sha davrada his qilasiz. Jin chalishiga kelsak... Jin chalgan odam devona bo‘lib qolarmidi? Qanday qo‘rqinchli dard! Jin chalganlar ham ko‘payib ketdi...

Adibning “Qo‘rqinch” degan hikoyasi qaysidir jihatlar bilan “Toshgulni jin chaldi” hikoyasining “shaharcha” bir ko‘rinishi desakmikan? Yo‘q, men kitob o‘qishga targ‘ib qilaman, tahlil ustalariga havola, xulosani zukko o‘quvchilarimiz chiqarsin.

“Charx aylangan kun” dan o‘qiymiz:

“Ota-bola kaltak yeb qaytishdi. Bola qo‘llarini musht qildi. Titrab-qaqshadi. Xayoliga kelgan gap tiliga ko‘chdi:

– Ota, otajon, – dedi hiqillab, – bir kun katta bo‘lsam, shu yerning eng kattasi, hamma ofitserlari Sizga “chest” beradi, ota, otajon, shunday bo‘ladi...

Bola qiblaga yuzlanib, uvvos tortib yig‘lab yubordi. Osmon qog‘o‘rtasidan yorilib ketganday bo‘ldi...”

Dunyoda eng og‘ir xo‘rlilik...

Xo‘rlilikning og‘ir-yengili bo‘larmidi, xo‘rlilik xo‘rlilikdir. Biroq bolasi ko‘z o‘ngida otaning xo‘rlanishi eng, eng, eng...

Bu hikoyani farzandlaringizga ham o‘qib bering!

“Muallimning sabog‘i” dan

o‘qiymiz:

“Odamlar daraxt tanasiga bolta urishayotganda o‘z tomirini kesayotganini bilmaydi. Insonning ham tomiri bo‘ladi; uning tomiri – kelajagi, farzandlari! “Osmonni daraxtlar va bolalar suyak turadi”, degan gap bekorga aytilmagan”.

Jiddiy taqiqlarga qaramasdan, bugun ham daraxtkushlik bor. Poytaxt havosining ifloslanishi bugun barchaning tashvishiga aylandi. Kuz tugab borayotgan bo‘lsa-da, hamon yog‘ingarchilikning yo‘qligi kishini xavotirga soladi. Odamlar daraxtlar hayotimizda naqadar katta o‘rin tutishini anglagandek. Ammo... Qani edi, farzandlarimizga hikoya qahramoni kabi saboq bera olsak. Bu bir hikoya emas, haqiqiy saboq ekanini hamma anglasa edi.

“Spektakl o‘zgardi” hikoyasidan o‘qiymiz:

“– To‘xtaaaa!!! Gullagan daraxtni kesish homilador ayolni o‘ldirish bilan barobar-ku! – Qariya zor qaqqashab qarshisidagi kimsaning yo‘lini to‘sadi.

Teatrda odam liq to‘la. Bo‘sh o‘rin yo‘q. Hech kim qilt etmaydi. Hamma tosh qotgan.

Spektakl oxirlayapti. Mana, qo‘lida arra tutgan go‘rso‘xta gullagan o‘rik sari yaqinlashyapti...

Ha, u daraxt tanasiga arra solgan zahoti sahna qorong‘ilashadi... va... o‘rikning qarsillab qulashi eshitilishi kerak...”

Albatta, hikoya mazmunini aytib berish niyatimiz yo‘q. Bu o‘quvchida mutolaa shavqini so‘ndiradi. Hikoya yuqoridagi parcha bilan boshlanadi. Va boshlanishiyog o‘quvchini sergak torttiradi. “Gullagan daraxtni kesish...” Qanday og‘ir o‘xshatish. Bunday hikoyalarni o‘qigandan so‘ng yurakda unutilayozgan hislar jonlanadi, daraxtlar, mevali bog‘larga boshqacha ko‘z bilan qaraysiz. Ayni kunlarda tirik tuyg‘ular hammamizga juda-juda kerak.

Adibning yana bir hikoyasi “Urushning suvrati” deb nomlanadi.

O‘qiymiz: “Xotira bayramida mozorotga bordim. Askar kiyimida jilmayib turgan o‘g‘lonning surati tagida: “Men otamdan oldin o‘lganman...” degan yozuvni o‘qidim. G‘ulom boboning qabr boshidagi marmar lavhda: “Men bolamdan keyin o‘lganman...” degan yozuvga ko‘zim tushdi.

Ichimdan ko‘pirib toshgan og‘riq bo‘ronini to‘xtatolmadim...”

Otasidan oldin o‘lgan yigitlar... Aziz jonini Vatan himoyasiga tikkan yigitlar...

Ulardan birining onasi yuzimga yuzini yaqin keltirib, ko‘zlarimga tikilganicha: “Uni hamma unutsa ham, men unutmayman!” degan edi. Yana birining otasi ko‘zlarida qotib qolgan g‘amni ko‘rganman, hech qachon ketmaydigan, ko‘zyoshlar ham yuva olmaydigan g‘amni ko‘rganman.

Adabiyot qalbni qattiqlashishdan asraydi, atrofimizdagi olam va odamlarning qiymatini anglatadi. Yaxshi asarlar mutolaasi ruhni tozartiradi, yurakni uyg‘oqlikka undaydi. Asil asarlar tavsiya qilishda “Keling, kitob o‘qiymiz!” sahifasi sizning eng yaqin ko‘makchingiz bo‘la oladi.

Biz taniqli adib Qo‘chqor Norqobilning sahna asarlari haqida hech narsa demadik. Uning o‘zi alohida mavzu. Qissalari haqida ham so‘z ochmadik. Epigraf sifatida keltirganimiz she‘r ham uning qalamiga mansub, o‘z tarixiga ega. Ko‘pdan ko‘p hikoyalarning ham ayrimlariga to‘xtaldik, zero o‘qish istagi borlarga shular ham yetarli.

Aziz o‘quvchilarimizga huzurli mutolaalar tilab, so‘zimni yozuvchining quyidagi hikmati bilan yakunlayman: “Dunyo – mening uyim. Kitoblar uning chiroqlaridir”.

Inobat IBROHIMOVA,
“Vatanparvar”



3-dekabr – Xalqaro nogironlar kuni

Yurtimizda imkoniyati cheklangan shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning hayotiy faolligi, sog'lig'i va ijtimoiy integratsiyasini ta'minlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri – insonparvarlik, har bir fuqaroning, ayniqsa ko'proq e'tibor va g'amxo'rlikka muhtoj insonlarning hayot sifatini yaxshilashdir. Zero jamiyatning ma'naviy qudrati insonlarga bo'lgan munosabat bilan o'lchanadi.

MEHR



EZGULIKKA YO'L OCHADI

3-dekabr – Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan Mudofaa vazirligi tomonidan Toshkent va Chirchiq garnizonlarida xizmat qiluvchi, oilasida imkoniyati cheklangan farzandlari bor harbiy xizmatchilar xonadonlariga tashrif uyushtirildi. Bu oddiy yo'qlov emas, balki yurakdan yurakka qo'l uzatish, mehr va e'tibor tuyg'usini yetkazish maqsadida amalga oshirilgan ezgu tashabbus bo'ldi.

Tashrif davomida oilalarning ijtimoiy ahvoli, farzandlarning sog'lig'i va zarur ehtiyojlari o'rganildi. Ma'naviy qo'llab-quvvatlash, moddiy yordam berish bilan birga, oila a'zolari bilan samimiy suhbat o'tkazildi. Mehr bilan aytilgan har bir so'z, yuzdagi tabassum ota-onalarga katta ruhiy quvvat bag'ishladi.

– Biz uchun bunday e'tibor juda katta ahamiyatga ega. Farzandim bolaligidan imkoniyati cheklangan bo'lsa-da, uning qalbida san'at, ilm olishga katta muhabbat bor, – deydi kichik serjant Samandar Toirovning turmush o'rtog'i. – Bugungi tashrif mobaynida u bilan suhbatlashishdi, qiziqishlarini o'rganishdi. Bolamning yuzidagi xursandchilikni ko'rib, ko'zimga yosh keldi. Chunki e'tibor – eng katta kuch! Mudofaa vazirligiga, bu tadbirni tashkil etganlarga minnatdorlik bildiraman.

Xonadonlarga kirilganda yana bir bor shunga amin bo'lish mumkinki, imkoniyati cheklangan yoshlar orasida ilm-fanga, musiqa va adabiyotga muhabbat qo'ygan, katta maqsadlarga intiluvchan va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalanayotgan bolalar bisyor. Ularga bir lahza e'tibor – kelajakka ishonch, bir og'iz iliq so'z esa umrbod ruhiy quvvat bo'ladi.

– Hayotdagi har bir sinov insonni yanada kuchli qiladi. Bu sinov nafaqat harbiy xizmatchilarimiz oilalariga, balki butun jamiyatimizga berilayotgan bir mas'uliyatli voqealidir, – deydi Mudofaa vazirligi xotin-qizlar

va harbiy xizmatchilarning oila a'zolari bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassisi Zulfiya Mansurova. – Xonadonlarga kirib, oilalar bilan suhbatlashar ekanmiz, ularning yuzidagi mamnuniyat, dilidagi shukronalikni ko'rib, yana bir bor amin bo'ldik: bu oilalar kuchli. Ular sabr, iroda va jasorat bilan mazkur sinovni yengib o'tmoqda. Bolajonlarning ko'zlarida bitmas umid, ertangi kunga ulkan maqsadlarga ishonch porlab turibdi. Ular jismoniy imkoniyati cheklangan bo'lsa-da, qalb kuchlari, intilishlari va orzu-umidlari beqiyos. Biz esa har doim ularning yonida bo'lishni, har bir oilani qo'llab-quvvatlashni o'z burchimiz deb bilamiz. Zero mehr va e'tibor – eng katta quvvat! Shu quvvatni ular his qilib turishi uchun bundan keyin ham izchil harakat qilamiz.

Yurtimizda inson qadri ulug', imkoniyatidan qat'i nazar, har bir inson jamiyatning bir bo'laki sifatida e'zozlanadi. Shu bois bu kabi sa'y-harakatlar kelgusida ham izchil davom etib, imkoniyati cheklangan insonlar uchun yanada qulay, ravnaqli va mehrga to'la muhit yaratilishiga xizmat qilishi, shubhasiz.

Ro'ziqul OCHILOV,
"Vatanparvar"



Oila va jamiyat

HARBIY OILALARDA GENDER STEREOTIPLAR

Harbiy oilalarda hayot boshqalarnikiga o'xshamaydi. Chunki ularning darvozasidan har kuni ikki olam – burch va muhabbat, qat'iyat hamda umid birga kiribchiqadi. Oila boshlig'i bo'lmish erkakning uyda kam bo'lishi – bu oilalarning eng katta sinovi. Bir qaraganda sodda, oddiy hodisa: xizmat, navbatchilik, safarlar... Bu omillar aslida oilaning ichki muhitiga ham ta'sir qiladi.

Bunday sharoitda erkak va ayolning o'z o'rnini qanday ko'rishi, kim qanday qaror qabul qilishi, oiladagi vazifalar qanday bo'linishi ko'pincha gender stereotiplari bilan belgilanadi. Erkak ko'pincha oila boshlig'i, himoyachi va asosiy qaror qabul qiluvchi sifatida qabul qilinadi, chunki harbiy xizmat o'zi shunday rol ni talab qiladi. Ammo amaliy hayotda ko'plab qarorlarni ayol qabul qiladi, chunki erkak xizmatda bo'ladi, safarga ketadi yoki vaqtining ko'pini harbiy qismda o'tkazadi. Shu sababli ayol uy, bolalar tarbiyasi va kundalik muammolarni mustaqil hal qiladigan kuchli tayanchga aylanadi.

Bu holat ayolni bardoshli va mustaqil qiladi. Lekin ba'zan ichki charchoq, ziddiyat va o'zini anglashda qiyinchiliklarga olib keladi. Erkaklar esa o'z kasbining og'irligi tufayli ko'pincha emotsional jihatdan oila hayotidan chekkaroq turadi, lekin unda oila uchun mas'uliyat hissi va himoya instinkti kuchli bo'ladi. Harbiy oilada qaror qabul qilish ko'pincha ikki yoqlama kechadi: rasmiy tomondan erkak yetakchi, amaliy tomondan esa ayol ko'proq mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Bu holat ba'zan muvozanatni buzishi, ba'zan esa oila barqarorligini mustahkamlashi mumkin.

Harbiy oilalarda o'zini anglash va shaxsiy identitet ham o'ziga xos shakllanadi.

Erkakning shaxsiy identiteti ko'p jihatdan xizmat burchi, harbiy mas'uliyat bilan shakllanadi. Ayollar esa oilani bir butun saqlab turuvchi poydevor roli bilan o'zini identifikatsiya qiladi. Bunda o'rtadagi eng muhim omil o'zaro hurmat, muloqot va bir-birini tushunishdir. Shundagina harbiy oiladagi intizom mustahkam bo'ladi, farzandlar baxtli hayot kechiradi.

Harbiy oilalarda erkak va ayolning hayotga bo'lgan qarashi ham boshqalardan farq qiladi. Harbiy xizmatning o'ziga xos bosimi, muntazam tayyorgarlik, safarlar va mas'uliyat erkakning ruhiy holatiga ta'sir qiladi, albatta. U ko'pincha o'z his-tuyg'ularini bildirishni ikkinchi o'ringa qo'yadi, chunki xizmatda qat'iyat va bardoshlilik talab etiladi. Bu esa uyda emotsional suhbatlar kamroq bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Ayollar esa, aksincha oilaning ichki muhitini iliq va barqaror saqlashga harakat qiladi. Ular turmush o'rtoqlari uzoqda bo'lganda ham oila ritmini buzmaslikka intiladi. Shuning uchun ayollarning vazifalari ko'payadi: ular nafaqat uy boshqaruvchisi, balki bolalarning psixologik tayananchi, erining emotsional yordamchisi va oila tinchligining kafolatiga aylanadi.

Harbiy oilalarda bolalarning tarbiyasi ham oddiy oiladagidek kechmaydi. Ota uyda ko'p bo'lmagani bois bolaning dunyoqarashi, ruhiy olami ko'p



hollarda ona orqali shakllanadi. Uning har bir so'zi, har bir xatti-harakati bolaga hayotning birinchi qonuniday singadi. Agar ona to'g'ri tarbiya orqali farzandlarga otaga nisbatan hurmatni, ehtiromni, mehr-muhabbatni singdirsa, bunday oilalarda otalar qat'iy qoidalar va intizom timsoli bo'lishi kuzatiladi. Ular farzandlar uchun uyda tartib-intizom joriy qilgan matonatli shaxs – qudratli timsolga aylanadi. Bu esa bolalarda ikkita model shakllanishiga olib keladi: mehribonlik va intizom uyg'unlashgan tarbiya.

Harbiy oilalar xizmat burchi sabab ko'p ko'chadi, yangi joylarga moslashadi, yangi odamlar bilan tanishadi. Aslida bu vaziyatlar ularni kuchli, moslashuvchan va turli vaziyatlarga tayyor qiladi. Ammo doimiy moslashish jarayoni ba'zan charchatishi, ayniqsa ayollarda ruhiy toliqish paydo qilishi mumkin. Shunday bo'lsa-da, ko'pchilik harbiy oilalar o'zini birdam va mustahkam his qiladi, chunki ular bir maqsad – oila va Vatan himoyasi atrofida birlashgan bo'ladi.

Harbiy oilalarda o'zini anglash jarayoni ham har bir a'zosiida turlicha kechadi. Ayol bu hayot ichida qadam-baqadam o'z kuchini kashf etib boradi: kecha – oddiy rafiqa, bugun – mustaqil, barqaror, oila mas'uliyatini gardaniga olgan turmush o'rtoq. Uning "men"i asta-sekin sabr va matonatdan qurilgan ichki qudratga aylanadi.

Erkak esa o'zini boshqacha anglaydi. U "mening xizmatdagi har bir qadamim – oilam uchun qilingan fidoyilik", deb biladi. Ya'ni u burchni bajarishni shunchaki kasb deb emas, balki oilani himoya qilishning o'ziga xos shakli sifatida qabul qiladi. Uning "men"i mas'uliyat orqali boyiydi, fidoyilik orqali ma'no topadi.

Bu ikki idrok – ikki sirli daryo kabi. Biri – tinch, mehribon va barqaror. Biri – qat'iyat va mas'uliyatli. Aslida ular bir-birini boyituvchi ikki qutb kabi. Ayolning mehr-muhabbati, sabri erkakning fidoyiligini ma'no bilan to'ldirsa, erkakning burchga sadoqati, shijoati – ayolning matonatini yanada mustahkamlaydi. Mana shu uyg'unlik bor ekan, bunday oilalar mustahkam, ruhan baquvvat va yaxlit bo'ladi.

Agar erkak va ayolning ruhiyati, qarashlari bir-biriga mos kelmasa-chi? Bunday oilalarda o'zaro tushunmovchilik paydo bo'ladi. Tushunmovchilikning oldini oluvchi eng muhim omil – bu muloqot. U oilaviy hayotning eng qudratli qalqoni, ruhiy tirgaklardan biri.

Ikki tomon bir-birini eshitishga, his qilishga, tushunishga intilsa, hatto harbiy xizmatning eng og'ir, eng sinovli kunlari ham oilani parokanda qilmaydi. Aksincha, ikki qalbdagi mehr va ishonchni yanada mustahkamlaydi, ularni bir-biriga yana yaqinlashtiradi. Ya'ni muloqot – qalblarni bog'laydigan ko'rinmas ko'priq. Shu ko'priq mavjud ekan, harbiy oilalardagi har qanday sinov ham yechimi bor imtihonga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, harbiy oilalar burch, muhabbat, sabr va matonatni birlashtirgan makondir. Bu oilalarda gender rollari an'anaviy tarzda ko'rinsada, amaliy hayotda ular bir-birini to'ldirib, mustahkamlab boraveradi. Asosiysi, farzandlar mehr-muhabbat hamda tartib-intizom uyg'unlashgan muhitda tarbiya topadi, ayol va urning shaxsiy identiteti esa ruhiy qudrat hamda mas'uliyatni mustahkamlaydi. Bu esa har qanday sinovni yengillashtiradi.

Gulnora NAZAROVA,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti katta o'qituvchisi



Ogohlik

IS GAZI – KO‘RINMAS QOTIL



Xalqimiz orasida falokat – oyoq ostida, degan gap yuradi. Darhaqiqat, odatda, balo kutilmaganda keladi. Lekin ayrim ofatlar borki, ularni kutadigan bo‘lib qolganmiz, desak, garchi quloqqa g‘alati eshitilsa ham, aslida mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Ha, anglaganingizdek, gap is gazidan zaharlanib, hayotdan bevaqt ko‘z yumayotgan odamlar haqida ketmoqda.

Kunlar soviy boshlashi bilan ijtimoiy tarmoqlarda, ommaviy axborot vositalarida is gazidan zaharlanish bilan bog‘liq shumxabarlar tez-tez quloqqa chalina boshlaydi. Yana ham achinarlisi, odatda, bu ko‘rinmas yov dastidan butun bir oilalar, murg‘akkina go‘daklar ham nobud bo‘lmoqda. To‘g‘risi, bunaqa xabarlarini o‘qib, hazm qilishga ko‘pincha odamning bardoshi yetmaydi.

Fikri ojizimcha, shaharlarda, ayniqsa poytaxtda yashaydiganlar bu fojining tag-tomirini anglab yetmasalar kerak. Chunki quvurlarda tabiiy gaz oqib kelib turadi, “svet” o‘chishi nodir holat, uy isitish g‘ami yo‘q, o‘tin topish tashvishini qilmaydi. Bu fikrlarni hasad yoki alamzadalik bilan yozayotganim yo‘q. Aslo! Faqat energetika sohasidagi rahbarlarning deyarli hammasi oddiy qishloq xalqidan farqli sharoitda yashashini ta’kidlamochiman, xolos. “Tanasi boshqa – dard bilmas”, degan maqol ayni shu o‘rinda juda ham mos tushadi.

O‘zbekiston Markaziy Osiyodagi barcha mineral resurslarning deyarli uchdan bir qismiga ega va gaz qazib olish bo‘yicha dunyoning yetakchi yigirma davlatidan biri. Lekin shunga qaramay, havo sovidi deguncha, aholini gaz bilan ta’minlash masalalari kun tartibiga chiqadi. Mahalliy gaz uzatish tizimining eskirgani, ichki bozorda gaz narxi pastligi, demografiya, geologik razvedka ishlari uchun milliy kadrlar yetishmasligi kabi sabablar katta gaz yo‘qotishlariga va samarasiz foydalanishga (*gazning 60 foizi oxirgi iste‘molchiga yetib bormay atmosferada tarqalib, yo‘qolib ketadi*) olib kelyapti. Natijada esa gaz ta’minoti yetib bormagan qishloq aholisi qishda uylarini ko‘mir, o‘tin, tappi yoki turli xil qo‘lbola elektr jihozlari bilan isitishga majbur.

Ma’lumotlarga ko‘ra, dunyoda is gazi tufayli sodir bo‘ladigan o‘lim holatlari alkogoldan zaharlanish sababli kuzatiladigan o‘limlardan keyin ikkinchi o‘rinda turar ekan. Eng yomoni bu ko‘rsatkichlar yil sayin ortib bormoqda.

– Uglerod oksidi, ya’ni is gazi hidsiz va rangsiz bo‘lib, inson o‘zida holsizlanish alomatlarini his qilmaguncha uning borligini sezmaydi, – deydi shifokor Doniyor Alimov. – Ushbu gazdan zaharlanish uchun esa uning eng kam miqdori yetarli hisoblanadi. Shu bois is gazi “ko‘rinmas qotil” deb ham ataladi. Uglerod oksidi asosan, tabiiy gaz, ko‘mir, o‘tin cho‘g‘larining to‘liq yonmasligi natijasida hosil bo‘ladi. Is gazi organizmga nafas a‘zolari orqali ta’sir etib, avvalo, qonga kiradi va



gemoglobin hujayralarini zararlaydi. Shundan so‘ng gemoglobin kislorod tashish qobiliyatini yo‘qotadi. Odam bu gazdan qancha ko‘p nafas olsa, uning qonida shunchalik gemoglobin kamayadi va tanada kislorod yetishmovchiligi paydo bo‘ladi. Is gazidan zaharlanishdan so‘ng gemoglobin hujayralarini tiklash uchun ko‘p vaqt talab etiladi.

“Ko‘rinmas yov”ning ko‘ringanlari

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, **2024-yilda 116 kishi, 2025-yilning boshidan beri esa 141 kishi** is gazidan zaharlanib vafot etgan. Bu shunchaki oddiy raqamlar emas. Buning ortida murg‘ak go‘daklar, jamiyatga foydasi tegib turgan oilalarning bevaqt hayotdan ko‘z yumishi turibdi. Shuncha o‘lim kuzatilgan bo‘lishiga qaramasdan, aholi o‘rtasida bugun ham is gazidan zaharlanib vafot etish holatlari kun sayin ortib bormoqda.

Misol uchun, shu yilning 18-noyabr kuni Andijon viloyatida ichki ishlar organi xodimi O.Y. o‘z xizmat uyida is gazidan zaharlanib vafot etgan. Achinarli tomoni xodimning yonida 2 nafar farzandi ham bo‘lgan. Uning 7 yoshli qiz farzandi o‘sha kunning o‘zida hayotdan ko‘z yumgan. 3 yoshli qiz farzandi esa jonlantirish bo‘limiga yotqizilgan.

Shuningdek, joriy yilning 23-noyabr kuni Buxoro shahri, Hamza ko‘chasidagi xonadonlarning birida yashagan oila – 1982-yilda tug‘ilgan erkak, 1985-yilda tug‘ilgan turmush o‘rtog‘i va 2 nafar voyaga yetmagan farzandi (*qizlar*) is gazidan zaharlanib vafot etgan...

Mana, yana kunlar soviy boshlashi bilan sovuq xabarlar ko‘paya boshladi. Oradan bir kun o‘tar-o‘tmas, 24-noyabr kuni Buxoro shahridagi ko‘p qavatli uylarning birida er-xotin va ularning ikki nafar voyaga yetmagan qizi is gazidan zaharlanib, hayotdan bevaqt ko‘z yumgan.

Xabarlarini o‘qiymiz-u, unutamiz, bolalar nobud bo‘lganini eshitsak, bir seskanib qo‘yarmiz, ehtimol. Ammo bu holatga butunlay befarqligimiz yildan yilga o‘limlar soni ko‘payayotganidan

ma’lum. Begunoh go‘daklar isinishga harakat qilib, uyqudan uyg‘onmayapti, bir uydan butun oilaning tobuti birdaniga chiqib ketayapti, soppa-sog‘ odam bir tuki to‘kilmay, jon beryapti. Hid va rangga ega bo‘lmagan bu “sezdirmay o‘ldiruvchi” necha-necha kishilarning yostig‘ini quritishda davom etyapti.

Oxirgi yillarda tabiiy gazdan kesilgan hududlarga suyuq gaz (*propan*) va ko‘mir yetkazib berish yo‘lga qo‘yildi. Ko‘mir mahalla fuqarolar yig‘ini orqali kam ta’minlangan oilalarga bozor narxidan arzonga yetkazib berilmoqda. Biroq aksariyat odamlarning ana shu arzon ko‘mirni sotib olishga ham imkonlari yo‘qligi achchiq bo‘lsa ham haqiqat. Propan gazini ham xalq haqqidan qo‘rqmaydigan “raygaz”chilar talon-toroj qilmoqda. Bu ham alohida mavzu...

Endi nima qoldi? Qishloqliklarning birdan bir umidi elektr energiyasidan. Ayni kunlarda qishloqda aksariyat odamlar elektr isitkichlarda jon saqlayapti. Lekin energiya taqchilligi ortidan nafaqat qishloqlarda, balki katta-katta shaharlarda ham, hatto ayrim paytlarda poytaxt Toshkentda ham “svet” o‘chib qolyapti. Bundan tashqari, elektr energiyasining narxlar oshishi va o‘rnatilgan norma qishloq odamlarining, ayniqsa rasmiy daromadi bo‘lmagan oilalarning bu “imkoniyatdan” foydalana olishini cheklamoqda. Natijada ular ko‘mir va tappida uylarini isitishga majbur bo‘lmoqda. Oqibatda esa...

Kattalarning ayrim gapidan mantiq topolmaysiz goho. Chunki biz ayrim mutasaddilar ta’biri bilan aytganda qimmat gazni yoqib, arzon elektr energiyasini ishlab chiqaradigan davlatmiz. Ya’ni tabiiy gaz eksporti (*deyarli*) to‘xtatilgani rost bo‘lsa, “svet” o‘chmasligi kerak emasmi?

Avvalroq Namangan viloyatida xonadonda biror sabab bilan metan, propan va boshqa is gazlari chiqadigan bo‘lsa, avtomatik tarzda aniqlab signal orqali xabar beradigan yangi qurilma ishlab chiqarila boshlangani haqida xabarlar e’lon qilingandi. Xabarga ko‘ra, ushbu qurilma elektr energiyaga ulangan holda ishlaydi. Shu orqali u

elektr quvvatini o‘zida jamlab, elektr energiyasi tizimdan uzilgan hollarda ham 24 soat ishlab turish imkonini berar ekan.

Shu o‘rinda savol tug‘iladi: xo‘sh, ana shunday qurilma yurtimizda ishlab chiqarilayotgan bo‘lsa, narxi ham hamyonbop bo‘lsa, unda nega hamon odamlar is gazidan zaharlanib vafot etmoqda? Ushbu qurilma odamlarni is gazi chiqqanda ogohlantirishga xizmat qilsa, nega xalq ichida ushbu qurilmadan foydalanish targ‘ib qilinmayapti?

Xullas, mana shunday savollar uyilib kelaveradi. Mutasaddilar bo‘lsa, issiqqina kursisidan turgisi kelmaydi. Odamlar esa...

Nima qilish kerak?

Ommaviy axborot vositalarida zaharlanish ortidan kelgan halokatlarning 99,9 foizi ehtiyotsizlik oqibatida sodir bo‘lgani aytiladi. Bo‘lishi mumkin, bunday dalillardan ko‘z yumagan holda shuni ta’kidlash lozimki, tanganing ikkinchi tomoni ham bor. Masalaning bir uchi ehtiyotsizlikka, beparvolikka borib taqalsa, ikkinchi uchi davlat va jamoat tashkilotlarining loqaydligiga borib taqaladi. Negaki is gazidan himoyalaniish bo‘yicha targ‘ibot o‘ta jo‘n, ta’siri yo‘q va nomiga olib borilyapti. Hisobotga qarasang, hammasi a’lo. Biroq odamlarning qurbon bo‘lishi to‘xtamayapti-ku! Qancha insonlar jigarbandidan, yana qanchasi boquvchisidan mahrum bo‘lmoqda.

Shunday ekan, har birimiz, eng avvalo, o‘zimiz uchun qayg‘urib, eng oddiy qoidalarga rioya qilishimiz zarur. Gaz plitasida binoni isitish va uning ustida kiyimlarni quritish, shuningdek plitaning yoqilgan holatda nazoratsiz qolishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Bundan tashqari, gaz sizib chiqayotganini ochiq olov, masalan, gugurt chaqib tekshirib ko‘rish mumkin emas.

Shuningdek, xonadonlarga is gazini aniqlovchi qurilma o‘rnatish odamlarni bevaqt o‘limdan asraydi. Is gazi ko‘zga ko‘rinmas va hidsiz bo‘lgani uchun uni odamning o‘zi payqashi mushkul.

Shuning uchun mamlakatimizda ishlab chiqarilishi yo‘lga qo‘yilgan is gazidan ogohlantiruvchi detektorlardan foydalanish kerak. Shundagina yuqoridagi kabi holatlarning oldi olinadi.

**Leytenant
Mansurbek JABBOROV,
“Vatanparvar”**

Voqeiy hikoya

HAYOT TOMCHILARI

GUMROH

– To'yimizdan keyin o'qishingni davom ettirasan, deb va'da bergandingiz. Nega endi fikringiz o'zgardi?

– Qanday va'da? – raqibi tomon jangga shaylangan jo'jaho'rozdek hurpaydi yigit. – Men xotinini ko'chaga chiqarib ishlatadigan oriya'siz erkakka o'xshaymanmi?! Shunday ekan, o'qishni unut!

– Ishlamasam ham mayli, faqat o'qishimni yakunlab, diplomni qo'lga olay! Oliygo'ha kirishim oson bo'lmagan axir, – yalinchoq ohangda eriga umid bilan termildi kelinchak.

– Ishlamaganingdan keyin diplomning nima keragi bor? Xullas, bu haqda ikkinchi bor so'z ochma.

– Iltimos, men...

– O'chir, ovozingni!...

Yillar o'tdi, juvon eriga ikki o'g'il, ikki qiz tug'ib berdi. Eridan beso'roq ostonaga xatlab ko'chaga chiqmadi. Hatto ota-onasini ko'rishga ham ijoza'siz qadam bosmadi. Kezi kelsa, ota-onasi kelib, qizlarini ko'rib ketdi...

– Kundan kun ahvolim og'irlashyapti, – oyog'ini uqalab o'tirgan ayoliga ma'yus termildi yigit. – Bu bedavo dard bilan ko'pga bormasam kerak.

– Unday demang, – ko'zlari yoshlandi juvonning, – Xudo xohlasa, yaxshi bo'lib ketasiz.

– Bolalarimiz hali yosh, ularni ulg'aytirish senga qoladiganga o'xshaydi, – chuqur uh tortdi u.

– Yaxshi niyat qilsangiz-chi, o'g'illarimizni o'qitib, katta odam qilaman, degan orzularingiz bor. Sizsiz men ularni qanday uddalayman?!

Ko'p o'tmay, yigit omonatini topshirdi. Kattasi o'n bir yosh to'rt farzand ona qo'lida qoldi. Qo'lida kasb-kori, diplomi yo'q juvon bolalarini boqish uchun ostonaga xatlashga majbur bo'ldi. Mardikor bozori tomon yo'lga tushdi.



JUR'AT

– Xullas, ommaviy axborot vositalari o'rtasida o'tkazilayotgan respublika tanlovida kamida 2-3 kishi qatnashishi kerak. Yuqoridagi muassislarning talabi shunday. Qani, kimlar ishtirok etadi? – muxbirlarga yuzlandi gazeta muharriri. – 2004-yilning eng nufuzli tanlovi bu, balki bizning tahririyatdan ham g'oliblar chiqar.

– Tanlov yetimlikda va bolalar uyida ulg'ayib, yutuqlarga erishgan yigit-qizlar haqida ekan. Menda bu mavzuda maqolalar yo'q, – fikrini bildirdi yoshi katta muxbirlardan biri.

– Menda ham shunday.

– Men ham...

Majlisga yig'ilgan yigirmaga yaqin qalamkashning ko'pi bu topshiriqni o'zidan soqit qildi.

– Tanlovga ikki hafta mobaynida ijodiy ishlarni topshirish mumkin. Unga qadar maqolalar yozib, o'zimizda va respublikadagi boshqa gazetalarda bemalol chiqarsalaring bo'ladi. Faqat kamida to'rtta maqola berish lozim. Qani, fidoyilar bormi?

Oradagi jimlikni tahririyatga kelganiga ko'p bo'lmagan yangi muxbir – Zilolaning ovozi bo'ldi:

– Ruxsat bersangiz, men harakat qilaman!

– Siz?! – unga ishonchsiz termildi muharrir. – Fozilova, bu juda katta tanlov, uddalay olasizmi? Hech bo'lmaganda, rag'batlantiruvchi o'rin olish kerak?

– Qo'ldan kelganicha...

– Boshqalar-chi?

Muxbirlarga bir-bir qarab chiqdi muharrir. Hech kimdan sado chiqmadi.

– Mayli, Fozilova bo'lsa, Fozilova-da. Ammo qolganlar ham o'ylab ko'ringlar, hali vaqt bor. Hammaga ruxsat, ishingizni davom ettiring!

Yig'ilganlar "xayriyat" degandek, yengil tin oldi. Muharrir xonasidan chiqqar-chiqmas Zilolaga birin-ketin minnatdorlik bildirishdi:

– Sizga rahmat, bizni ortiqcha ishdan qutqardingiz.

– Ha, muharrirning gapiga e'tibor bermang, o'rin olmasangiz ham, qatnashganingiz muhim.

– To'g'ri, bunday nufuzli tanlovlarning o'z egalari bor. Tahririyatdan vakil bo'lganingiz katta gap.

– Xuddi shunday tanlovlarda ko'p ishtirok etganmiz, hammasi tanish-bilishchilik. Buni muharrirga aytishning foydasi yo'q.

– Shuni aytgich necha bor harakat qilganmiz, bo'lmagan. Sizga omad tilaymiz, singlim...

Zilolaning dilini hadik egalladi. "Shunday katta jurnalistlar tanlovda ishtirok etishni istamadi, men bo'lsam... Mayli ortga chekinish yo'q, qo'limdan kelganicha harakat qilaman!" o'zida kuch topdi muxbir qiz.

Mana, tanlov yo'nalishiga oid to'rtta maqola tayyor. Zilola bularni yozish uchun astoydil ter to'kdi.

Mehribonlik uyilarida bo'ldi, yetimlikda katta bo'lib, nufuzli kasblarni egallagan yigit-qizlar bilan

suhbatlashdi. Ota-onasiz ulg'ayib, Vatan himoyachilari safida qad rostlagan harbiy-xizmatchi haqida ocherk tayyorladi. Ijodiy ishlarini yelib-yugurib boshqa gazetalarda chiqarishga erishdi. Endi kerakli joyga yetkazsa bo'lgani, bu yog'i omad.

Zilola ming bir hayajon bilan maqolalar solingan papkani bag'riga bosganicha tanlov muassislari joylashgan katta binoga yaqinlashdi. O'ziyam tanlovning so'nggi kuniga arang ulgurdi. Ichkarida uni salobatli qo'riqchi qarshi oldi. Negadir ichkarida hech kim ko'rinmaydi, suv quygandek jimjit.

– Men tanlovda ishtirok etish uchun maqolalar olib kelgandim, – maqsadini tushuntirdi unga.

– Qanday tanlov? – taajjublandi qo'riqchi. – Bugun shanba bo'lgani uchun hamma dam olyapti. Mening hujjat olib qolishga haqqim yo'q.

Zilola uning javobidan yuragi uvushgancha tek qotdi.

– Bugun tanlovga "materiallar" topshirishning so'nggi kuni edi, – ovozi qaltiragan ko'yi.

Uning holatini ko'rgan qo'riqchi erkak hushyor tortdi, kimgadir telefon qilishga tutindi va suhbatlashib bo'lgach:

– Menga berib ketishingiz mumkin, shunday topshiriq bo'ldi, – dedi uning muammosini hal qilganidan mamnun qiyofada. – Faqat men uni ertaga xizmatga keladigan qo'riqchi sherigimga beraman. U dushanba kuni kerakli joyga yetkazadi.

Zilola maqolalarini qo'riqchiga topshirib qaytar ekan, negadir kayfiyati tushib ketdi. "Bu maqolalarni tayyorlaguncha qancha zahmat chekdim, qancha ostonaga bosh urib bordim. Qiynalib tayyorlagan mehnatim samarasini hech qanday ro'yxatdan o'tkazmasdan, qorovulga berib qaytappman. U ertaga sherigiga berib qo'yarmikan? Sherigi muassislarga topshirarmikan? Yodidan ko'tarilib qolsa, nima bo'ladi? Maqolalarimni olib qaytganim ma'qulmide".

Zilola ortga qaytib maqolalarini qo'riqchidan qaytarib olmoqchi ham bo'ldi. Ammo muharrirga ijodiy ishlarini topshirgani haqida axborot berishini o'ylab, fikridan qaytdi. Lekin tanlovda o'rin olish borasidagi orzularidan voz kechdi...

– Zilola Fozilova, sizmisiz? – tahririyatdagi telefondan ayol kishining ovozi keldi.

– Ha, Fozilovaman.

– Sizni respublika tanlovida o'rin olganingiz bilan tabriklaymiz.

– O'rin?! – yuragi gupillab ura boshladi Zilolaning. – Menga rag'batlantiruvchi o'rin berildimi, nahotki?

– Yo'q, g'oliblar safidasiz. "Turkiston" saroyida bo'lib o'tadigan tadbirga qatnashishingiz kerak.

– Men.. Men 3-o'rinni oldimmi? – qattiq hayajondan bazo'r so'ray oldi u.

– Yo'q, birinchi o'rin g'olibsiz!...

Zulfiya YUNUSOVA,
"Vatanparvar"

Salomatlik



BOTULIZM

QANCHALIK XAVFLI?

Har bir uy bekasining uyida o'zi tayyorlagan sabzavotlar, mevalar, rezavorlar, qo'ziqorinlarning tiqinli bankalari saqlanadi. Ammo konservalangan mahsulotlarning tayyorlash qoidalariga rioya qilinmasa, bankada o'lim xavfi – botulizm yashiringan bo'lishi mumkin. Chunki hosilni yoppasiga yig'ib-terib olish va konservalangan mahsulotlarni qishga tayyorlash davrida bu kasallik bilan kasallanish ehtimoli ortadi. Shu munosabat bilan iste'molchilarga ushbu xavfli kasallikning oldini olish choralarini eslatib o'tamiz.

Botulizm – bu o'tkir yuqumli kasallik bo'lib, unda botulotoksin (*ma'lum bo'lgan zaharlarning eng kuchlisi, u shaqildoq ilon zaharidan 375 baravar kuchliroq, organizmga ta'sir kuchi bo'yicha u ko'pchilik kimyoviy va biologik zaharlar orasida, shubhasiz yetakchi*) bilan zaharlanish sodir bo'ladi. U oziq-ovqat mahsulotlarida to'planadi. Kasallik asab tizimining shikastlanishi bilan tavsiflanadi va baliq, qonli kolbasa bilan zaharlanish holatlari qayd etilgani XVIII asrdan beri ma'lum. Rossiyada 1818-yilda birinchi marta dudlangan baliqni iste'mol qilish bilan bog'liq asab-falaj kasalligi tasvirlangan.

Ushbu toksinlarning xavfi shundaki, ularni "ta'mi va rangiga qarab" aniqlash imkonsiz. Marinad ham, tuzlama ham o'z ta'mi yoki tiniqligini o'zgartirmaydi. Botulotoksinning zaharli xususiyatlari ovqat hazm qilish fermentlari ta'sirida o'n va yuz barobar kuchayishi mumkin. Bemorlar orasidagi o'lim ko'rsatkichi 30 foizgacha yetadi.

Botulizmning sababi uyda konservalangan mahsulotlarni, ko'pincha quritilgan yoki dudlangan baliqni, konservalangan qo'ziqorinlarni va klostridiylar bilan zararlangan sabzavotlarni iste'mol qilishdir, chunki uy sharoitida botulizm klostridiylarining sporalarini to'liq yo'q qilish uchun zarur bo'lgan ishlov berish mumkin emas (*botulizm sporolari 30 daqiqadan ortiq qaynatishga bardosh beradi va faqat sanoat sharoitida avtoklavda yo'q qilinadi*). Bundan tashqari, botulotoksin oshqozon shirasi ta'siriga chidamli, tuzning yuqori konsentratsiyasiga bardosh beradi, turli ziravorlar qo'shilgan mahsulotlarda parchalanmaydi, konservalangan mahsulotlarda yillar davomida saqlanib qolish qobiliyatiga ega.

Havo kirmaganda, ya'ni baliq, quritilgan baliq kabi konservalangan mahsulotlar yoki mushak to'qimalarining zich qatlamlarida botulizm klostridiylarining sporolari o'sib, botulotoksinni faol ishlab chiqara boshlaydi.

"Bombaj" shisha banka ochilganda tovush chiqmasligi, achigan yog'ning hidi va ta'mi konserva mahsulotlarining buzilganini ko'rsatuvchi belgidir. Ularni ko'pchilik biladi. Bunday tuzlamalarni iste'mol qilish xavfli.

Ushbu belgilarga qarab, mahsulotda bakteriya ko'payib, botulotoksin to'planishga ulguraganini taxmin qilish mumkinmi? Yo'q! Gap shundaki, hayot faoliyati jarayonida Clostridium botulinum gaz hosil qilmaydi, binobarin bombaj belgilarini keltirib chiqara olmaydi. Zaharning o'zi esa mahsulotning tashqi ko'rinishini o'zgartirmaydi, hidi, ta'mi va rangi bo'lmaydi.

Botulotoksin "ko'rinmas": hidsiz, ta'msiz, rangsiz. Shu bilan birga u bankaning turli joyida uyalar shaklida to'planadi – zararlangan joylar bankaning butun tarkibi bo'ylab tarqalgan, shuning uchun bir xil bankadan konservalangan mahsulotlarni iste'mol qilgan odamlarning hammasi ham kasal bo'lavermaydi.

Tayyorlash texnologiyasi buzilganda quyidagi mahsulotlar infeksiya yuqtirish omili bo'lishi mumkin:

- qo'ziqorin, sabzavot, meva, go'sht va parranda go'shtidan uy sharoitida tayyorlangan germetik qadoqlangan konservalar;

- uy sharoitida va (*yoki*) sanitariya-gigiyena talablariga javob bermaydigan sanoat sharoitida tuzlangan, dudlangan va quritilgan baliq, shuningdek vakuum qadoqlangan baliq;

- uy sharoitida dudlangan, vakuumlangan go'sht mahsulotlari.

Botulizm yetarli darajada termik ishlov berilmagan, kislorod yo'q yoki kam bo'lgan sharoitda, xona haroratida saqlangan oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilganda paydo bo'lishi mumkin.

Odatda, kasallik organizmga tushgan toksin dozasi qarang juda tez – 2–48 soatdan 5 sutkagacha rivojlanadi. **Dastlabki belgilar:** holsizlik, bosh og'rig'i, ko'ngil aynishi, qusish, ba'zan ich ketishi, qorin og'rig'i. Keyin ko'rish o'tkirlikining buzilishi – ko'zda tuman, yaqin atrofdagi narsalarni yaxshi ajrata olmaslik, ko'zda ikkilanish paydo bo'ladi.

Kasallik zo'rayib borganida muskullar parezi va falaji ko'rinishidagi nevrologik o'zgarishlar ustunlik qila boshlaydi. Botulizmning eng dahshatli ko'rinishi diafragma va qovurg'alararo mushaklarning shikastlanishi bo'lib, natijada nafas to'xtashi mumkin.

Bemor odam atrofdagilar uchun xavfli emas. Atrofdagilar uchun asosiy xavf qolgan mahsulotdir.

Xulosa qilib aytganda, botulizmning tarqalishiga olib keladigan xavf omillarini ajratib ko'rsatish mumkin. Botulizmni keltirib chiqaruvchi bakteriyaning keng tarqalgani. Bakteriyaning tashqi muhitda uzoq vaqt saqlanishi va kislorodsiz muhitda toksin hosil qilishi. Ovqatlanishdagi mavjud mahalliy, milliy xususiyatlar, an'analar va urf-odatlar. Konserva, tuzlangan, dudlangan, va quritilgan mahsulotlarni uy sharoitida tayyorlash va saqlash qoidalarini buzish hamda ularni iste'mol qilish. Oziq-ovqat xomashyosining ikkilamchi ifloslanishi va mahsulotlarni tayyorlash va sotishning sanitariya-gigiyena qoidalarini buzish.

Botulizmning oldini olishda uy sharoitida quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:

- ruxsat etilmagan savdo joylarida uyda tayyorlangan konservalarni sotib olmaslik. Eslatib o'tamiz, shahardagi bozorlar va minibozorlarda uy sharoitida tayyorlangan konservalangan mahsulotlar, tuzlangan, dudlangan va quritilgan baliqlarni sotish taqiqlanadi;

- baliqni tuzlash va quritish bo'yicha tajriba o'tkazmaslik – bu juda xavfli;

- uy sharoitida go'sht, baliq, qo'ziqorin, sabzavotlarni germetik yopilgan bankalarda konservalamaslik;

- oziq-ovqat mahsulotlarini zaxiraga tayyorlashda quritish yoki muzlatishdan foydalanish;

- hayvonlarni so'yishdan keyin nimtalashda ichaklarni tez va ehtiyotkorlik bilan olib tashlash va sovuq sharoitda saqlash zarur;

- yangi baliq ovlangandan so'ng tezda ichini bo'shatib, oqar suvda yuviladi va sovuq joyda saqlanadi;

- uy sharoitida tayyorlangan konserva mahsulotlarini iste'mol qilishdan oldin ularni 20 daqiqa davomida qaynatish kerak (*bu vaqt ichida botulizm toksini parchalanadi*);
- go'sht, baliq, sabzavot mahsulotlarini saqlash muddatini uzaytirish uchun vakuumlashtirmaslik.

Botulizm alomatlari bo'lgan bemorlar majburiy ravishda shifoxonaga yotqizilishi kerak.

Davolanmasa, o'lim yuz berishi mumkin. Shu bilan birga shubhali oziq-ovqat qoldiqlari laboratoriya tekshiruvi uchun saqlanishi kerak.

Hushyor bo'ling! Xavfsiz taom tayyorlash va iste'mol qilish botulizmning oldini oladi!

Botulizm – o'limga olib keladigan xavfli kasallik!

O'zingizni asrang va sog' bo'ling!

**Tibbiy xizmat podpolkovnik
U. DAVRONOV,
Harbiy tibbiyot instituti
katta o'qituvchisi**

Yong'in xavfsizligi

OLOV – TILSIZ YOV!



Kuz-qish mavsumining boshlanishi bilan aholi yashash xonadonlarida yong'in va is gazidan zaharlanish holatlari sodir bo'lish xavfi ortib boradi.

Kuzatuvlarga ko'ra, bunday ko'ngilsiz holatlar, asosan qo'lbola gaz pechlaridan hamda isitish uchun mo'ljallanmagan nostandart moslamalardan foydalanish, dudbo'ron va shamollatish tizimlarining nosozligi yoki umuman mavjud emasligi kabi omillar bilan bog'liq.

Mazkur holatlarning oldini olish maqsadida Sharqiy harbiy okrug Farg'ona garnizoni yong'in nazorati inspeksiyasi tomonidan viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi mutaxassislari jalb etgan holda garnizondagi harbiy qismda yong'in profilaktik tadbiri o'tkazildi.

Tadbir davomida ishtirokchilarga is gazidan zaharlanish va havo-gaz aralashmasidan hosil bo'ladigan chaqnash holatlarining asosiy sabablari, uning oldini olish choralari, elektr tokidan zararlanish xavflari hamda yong'in xavfsizligi qoidalarini yana bir bor eslatib o'tildi.

Shuningdek, shaxsiy tarkibga yong'in o'chirgichlardan foydalanish bo'yicha yo'riqnoma berilib, amaliy ko'nikmalari oshirildi. Ta'kidlash joizki, Farg'ona garnizoni yong'in nazorati inspeksiyasi tomonidan mazkur tadbirlar muntazam va tizimli ravishda davom ettirilmoqda.

**Podpolkovnik
Baxtiyorjon ERGASHEV,
Farg'ona garnizoni yong'in
nazorati inspeksiyasi boshlig'i**



Ilmiy-amaliy konferensiya

MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUV VA TENDENSIYALAR



O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi tashabbusi bilan "Vatanparvar" tashkilotida texnik kasb mutaxassislari tayyorlash jarayoniga zamonaviy yondashuvlar va tendensiyalar" mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.

Konferensiyadan ko'zlangan asosiy maqsad "Vatanparvar" tashkiloti hamda davlat va jamoat tashkilotlari o'rtasida fuqarolarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarga o'qitish bo'yicha o'zaro hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarish, tashkilot tizimida fuqarolarni texnik kasblarga o'qitish samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlarni belgilab olishdan iborat.

"Vatanparvar" tashkilotining 34 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan ushbu tadbirda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi, Yoshlar ishlari agentligi, IIV Jamoat xavfsizligi departamenti yo'l harakati xavfsizligi xizmati, "GM O'zbekiston" qo'shma korxonasi,

"SAMIST AUTO" MChJ qo'shma korxonasi hamda "Swift Road Academy" MChJ mas'ul xodimlari ishtirok etdi.

Konferensiya "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirovning nutqi bilan boshlandi. O'z nutqida u fuqarolarni ish bilan ta'minlashning eng samarali usuli – bu ularni kasb-hunarlariga o'rgatish ekanini ta'kidladi va tashkilot tomonidan ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlarga batafsil to'xtalib o'tdi.

Jumladan, ilgari "Vatanparvar" tashkiloti tasarrufidagi o'quv muassasalarida avtomototransport haydovchilarini tayyorlash kurslarida turli toifalarda haydovchilar tayyorlab kelingan bo'lsa, ushbu tizim qayta ko'rib chiqilib, tashkilot bazasida fuqarolarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan yana qo'shimcha 10 xil kasbga o'qitishga doir mexanizm yo'lga qo'yildi.

"Texnik xizmat ko'rsatish mutaxassislari tayyorlash" kurslari tashkil etilib, unda fuqarolar 5 xil kasbga – vulkanizatorchi, gaz-elektr payvandchi, avtochilangar, avtoelektrik mutaxassislari bo'yicha o'qitila boshlandi. "Murakkab texnikalarni boshqarish mutaxassislari tayyorlash"



kurslarida yuk ortuvchi transport, avtogidropodyomnik, yuk mashinasi krani, g'ildirakli traktor, bitta kovshli ekskavator texnikalarini boshqarish bo'yicha mutaxassislari tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Ahamiyatli jihati shundaki, "Vatanparvar" tashkiloti mamlakat aholisining ish bilan band bo'lmagan vakillarini qo'llab-quvvatlash, ularga jamiyatda o'z o'rinlarini topishga ko'maklashish maqsadida o'z faoliyatida yangicha tizimni joriy etdi. "Vatanparvar" tashkiloti tizimida Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi hamda mahalliy hokimliklar bilan hamkorlikda "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlar va "Temir daftar", "Ayollar daftari"ga kiritilgan oilalarning farzandlari texnik kasblarga imtiyoz asosida o'qitilmoqda.

Har yili o'rtacha 100–150 ming nafar fuqaro haydovchilik kasbga o'qitilmoqda. Migratsiya agentligi bilan hamkorlikda xorijda vaqtincha ishlash istagida bo'lgan 200 dan ortiq o'zbekistonlik fuqaro haydovchilik kasbga o'qitilib, Yevropa davlatlariga yuborildi.

Bundan tashqari, 2025-yilning o'zida aholiga haydovchilik bo'yicha

sifatli ta'lim berish maqsadida, "Vatanparvar" tashkilotining o'quv muassasalariga 600 dan ortiq yangi zamonaviy yengil va yuk avtomobili xarid qilindi.

Konferensiya ishtirokchilari o'z faoliyatlaridan kelib chiqib, vazirlik va idoralarda fuqarolar, ayniqsa yoshlarni kasbga tayyorlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumotlar berdi hamda ushbu yo'nalishda "Vatanparvar" tashkiloti bilan olib borilayotgan hamkorlik ishlariga to'xtalib o'tdi. Har bir ma'ruzachi o'z nutqi yakunida bu boradagi ishlarni kuchaytirish bo'yicha takliflarini ilgari surdi.

Konferensiya davomida "Vatanparvar" tashkiloti o'quv muassasalarida avtomototransport vositalari haydovchilari, texnik xizmat ko'rsatish mutaxassislari va murakkab texnikalar boshqaruvchilarini tayyorlash bo'yicha yaratilgan moddiy-texnik negiz va tajriba ishtirokchilar tomonidan yuqori baholandi.

Qizg'in savol-javoblar bilan o'tgan tadbir yakunida tashkilot hamda vazirlik va idoralar o'rtasida fuqarolarni ommaviy texnik kasblarga o'qitishga doir hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarish, shuningdek ushbu yo'nalishdagi ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab olindi.

Tadbir doirasida tashrif buyuruvchilarga "Vatanparvar" tashkilotida "Avtokross", "Motokross", "Karting", "Duatlon", "Pnevmatik quroldan o'q otish", "Raketamodel", "Aviamodel", "Kemamodel" kabi sportning texnik va amaliy turlari bo'yicha tashkil etilgan seksiyalar va to'garaklarning ko'rgazmalari namoyish etildi.

Hamkorlik

YAPONIYA DELEGATSIYASI BILAN UCHRASHUV

Yaponiyaning "Kato Koichi TDG", "Ishiguro Yasunori Kodaira Kougyo", "Asari Daiichi Asari Construction" va "Egami Yoshiro Minami" kabi bir qator ish beruvchi kompaniyalarning prezidentlaridan iborat delegatsiya "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov qabulida bo'ldi.



Suhbat xorijda haydovchi sifatida ishlash istagida bo'lgan o'zbekistonlik fuqarolarni "Vatanparvar" tashkiloti o'quv muassasalarida "B" va "BC" toifalari bo'yicha tayyorlash mavzusida kechdi.

Muloqot chog'ida delegatsiya vakillari hozirgi kunda kunchiqar mamlakatda yengil va yuk avtomobillari haydovchilariga nisbatan talab juda yuqori ekanini bo'is Yaponiya hukumati ushbu ehtiyojini O'zbekistondagi ishchi kuchlar yordamida qondirishni rejalashtirayotganini ma'lum qildi.

"Vatanparvar" tashkiloti rahbari, o'z navbatida, delegatsiya tomonidan ko'tarilayotgan masalani hal qilishda tashkilotning moddiy-texnik negizi va kasbga o'rgatuvchi kadrlari yetarli ekanini bildirdi.

Uchrashuv davomida O'zbekistonda yapon diyorlari standartlariga mos ravishda o'quv avtodromini qurish, uni hamkor mamlakatning o'quv avtomobillari bilan butlash masalalari va ushbu davlatda haydovchilik kasbida ishlash istagida bo'lgan o'zbekistonliklarni o'qitish mexanizmlari muhokama qilindi.

O'zbekiston chempionati

Jizzax shahrida joylashgan "Navro'zbuloq" nomli sport majmuasida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan sportning avtokross turi bo'yicha O'zbekiston chempionati musobaqasi o'tkazildi.



AVTOKROSS BO'YICHA YIL CEMPIONLARI ANIQLANDI

Respublikamizning turli hududlaridan qatnashgan 60 dan ziyod sportchi "NU" (Milliy), "A-7", "A-8", "Baggi" sinflarida sport avtomobillarida bellashdi.

Qizg'in va murosasiz kechgan ekstremal musobaqa quyidagi natijalar bilan yakunalandi:

"A-7" sinfida:

1-o'rin: Jamshid G'aniyev (Jizzax v.);
2-o'rin: Xurshid G'aniyev (Jizzax v.);
3-o'rin: Ulug'bek Muxtorov (Navoiy v.).

"A-8" sinfida:

1-o'rin: Nikolay Sayev (Jizzax v.);
2-o'rin: Abdug'affor Tojiqulov (Jizzax v.);
3-o'rin: Temur Ahrorqulov (Jizzax v.).

"NU" (Milliy) sinfida:

1-o'rin: Samandar Xusanov (Jizzax v.);
2-o'rin: Umid Soatov (Jizzax v.);
3-o'rin: Azamat Tursunboyev (Jizzax v.).

"Baggi" sinfida:

1-o'rin: Furqat Ahrorqulov (Jizzax v.);
2-o'rin: Elyor Mullajonov (Sirdaryo v.);
3-o'rin: Odil Norqo'ziyev (Sirdaryo v.).

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida



Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarimiz qalbida vatanparvarlik hissini uyg'otish, mustahkamlash va kuchaytirish bilan bir qatorda ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish borasida joylarda qator amaliy ishlar qilinmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Navoiy viloyati kengashi tasarrufidagi Qiziltepa tumani 2-sonli o'quv sport-texnika markazi nodavlat ta'lim muassasasida ham bu yo'nalishda arzigulik natijalarga erishilmoqda.

Albatta, bunday ishlar ko'lamini yaxshilash maqsadida tashkilot a'zolari tuman hokimligi, mudofaa ishlari, maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari, Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda targ'ibot tadbirlarini faol tarzda olib bormoqda.

YOSHLARNING FAOL ISHTIROKI TA'MINLANMOQDA



– Xususan, yaqinda "Vatanparvar" tashkiloti tashkil etilganining 34 yilligi munosabati bilan "Vatanparvar" tashkiloti – mening tanlovim!" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy va harbiy-vatanparvarlik tadbirlari hamda sport musobaqalari o'tkazildi, – deydi O'STM NTM direktori Zokirjon Mirzayev. – O'z navbatida, bunday tadbirlar yoshlarimiz qalbida ona Vatanga muhabbat hissini va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ayni paytda tashkilotda yoshlar orasida harbiy-vatanparvarlik va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish hamda markazda faoliyat olib borayotgan sport turlariga jalb etishda yoshlarning e'tiborini tortadigan g'oya va tashabbuslar ishlab chiqilgan.

Natijada tuman yoshlari orasida harbiy-vatanparvarlik, ma'naviy-axloqiy tarbiyani yuqori saviyada tashkil etish hamda uni amalga oshirish borasida targ'ibot-tashviqot yuritish kabi tadbirlar ham muntazam ravishda tashkil etilmoqda. Albatta, tashkil etilayotgan bu kabi turli ma'naviy-ma'rifiy va sport tadbirlarida tashkilot a'zolari bo'lgan yoshlarning faol ishtiroki ta'minlanmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ayni paytda O'STM NTM faoliyatini yanada takomillashtirish, infratuzilma va moddiy-texnik bazani yaxshilash, texnik hamda amaliy sport turlarini rivojlantirish va ommalashtirish bo'yicha jozibadorligini oshirish yuzasidan ham bir qator ishlar olib borilmoqda.

Shuningdek, tashkilot faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri ommaviy kasb xodimlarini tayyorlash va ularni qayta tayyorlash ishlari ham zamon talablari asosida tashkil etilgan. Bu borada tashkilot jamoasining joriy yilning o'tgan oylari mobaynida erishgan yutuqlari chakki emas. Bugungi kunda tashkilotda belgilangan reja asosida "A", "B", "BC", "BE", "CE" hamda "D" toifali haydovchilar tayyorlanmoqda. Ayni paytda bu yo'nalishdagi faoliyat ko'lami yanada rivojlantirilib, bo'lajak haydovchilarning yetarli darajada bilim olishlari uchun ham nazariy, ham amaliy mashg'ulotlar olib borilmoqda. Amaliy mashg'ulotlarni olib borish uchun zamonaviy rusumdagi o'quv-mashq avtomobillari tinglovchilar ixtiyorida.

Bundan tashqari, o'z faoliyat yo'nalishini belgilangan dastur va rejalar asosida tashkil etgan O'STM jamoasi yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash borasida ham samarali faoliyat olib bormoqda. Shu bois ham hamkor tashkilotlar bilan birgalikda chaqiruvga qadar bo'lgan yoshlar va chaqiriluvchilarni xizmatga chaqirish davrida olib boriladigan tashkiliy-ommaviy va tarbiyaviy ishlarning qo'shma rejasi ishlab chiqilgan.

Akbar ALLAMURODOV



8-DEKABR –

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KONSTITUTSIYASI QABUL QILINGAN KUN

"Vatanparvar" tashkiloti Qiziltepa tumani 2-sonli o'quv sport-texnika markazi NTM jamoasi harbiy xizmatchilarni, "Vatanparvar" tashkiloti tizimida xizmat qilayotgan hamkasblarni va barcha yurtdoshlarimizni 8-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun munosabati bilan samimiy tabriklaydi.

Aziz yurtdoshlar! Barchangizning ezgu ishlaringizda omad va muvaffaqiyat doim yor bo'lsin!

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

MAQSADIMIZ – VATANPARVAR YOSHLARNI TARBIYALASH



O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Buxoro viloyati kengashi tasarrufidagi G'ijduvon tumani o'quv sport-texnika markazi nodavlat ta'lim muassasasi jamoasi nafaqat malakali kasb egasi bo'lgan haydovchilarni, balki ma'naviy yetuk vatanparvarlarni tarbiyalashni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Ayni paytda mazkur o'quv sport-texnika markazi nodavlat ta'lim muassasasida bo'lajak haydovchilar uchun kerakli shart-sharoitlar yaratilgan bo'lib, jumladan ma'naviyat-ma'rifat xonasi, axborot-resurs markazi, o'quv xonalari, yigirmaga yaqin o'quv-mashq avtomobillari va boshqa o'quv inshootlari faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Shu tufayli avtomobillarni epcchillik bilan boshqarish, xavfsiz harakatlanish bo'yicha darslar olib borilib, tegishli ko'rsatma va tushunchalar berilmoqda. Shu kunlarda tashkilotda "A", "B", "BC", "CE", "CE" va "D" toifali haydovchilar tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda.

– Tashkilotimizda yoshlarning jismoniy, ma'naviy-ruhiy jihatdan yetuk bo'lishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda, – deydi O'STM NTM direktori G'olibjon Parmonov.

– Ayni paytda markaz qoshida "Havo miltig'idan o'q otish", "Karting" hamda "Raketamodel" kabi seksiyalarda o'ttiz nafarga yaqin iqtidorli yosh muntazam ravishda shug'ullanmoqda. Albatta, sport yo'riqchilarining bu boradagi mehnatlari besamar ketmayapti. Shogirdlari respublika va viloyat miqyosida o'tkazilayotgan musobaqalarda sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritmoqda.

Turdosh tashkilotlarda bo'lgani kabi mazkur o'quv sport-texnika markazi NTMda ham "Vatanparvar" tashkilotining 34 yilligi munosib ravishda nishonlandi. Ushbu muhim sana munosabati bilan G'ijduvon tumanidagi ta'lim muassasalarida "Vatanparvar" – mening tanlovim!" shiori ostida turli ma'naviy-ma'rifiy va harbiy-vatanparvarlik tadbirlari, uchrashuvlar, davra suhbatlari hamda sport musobaqalari o'tkazilgani shular jumlasidan. Yaqinda tashkil etilgan ochiq eshiklar kuni ham ana shu muhim sanaga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirlar sirasidan.

Ayniqsa, mazkur O'STM NTM jamoasining G'ijduvon shahridagi maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan hamkorligini erishilayotgan muvaffaqiyatlar garovi sifatida e'tirof etish mumkin. Chunki bu yerga kelayotgan maktab o'quvchilari hamda maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining keti uzilmaydi. Bolajonlarda O'STMda tashkil etilayotgan ekskursiya katta taassurot qoldiradi. Ular uchun bu yerda harakatlanish xavfsizligi bo'yicha qiziqarli mashg'ulotlar o'tkazilmoqda. Eng muhimi, bolalar ko'cha va yo'llarda tartibli harakatlanish qoidalarini bolaligidanoq o'rganyapti.



Akbar ALI



"Vatanparvar" tashkiloti G'ijduvon tumani o'quv sport-texnika markazi NTM jamoasi aziz yurtdoshlarimizni, shuningdek barcha harbiy xizmatchilarni hamda "Vatanparvar" tashkiloti tizimidagi hamkasblarini hamda ularning oila a'zolarini Vatanimiz hayotidagi qutlug' sana 8-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 33 yilligi munosabati bilan muborakbod etadi.

Muhtaram yurtdoshlar! El-yurt ravnaqi, xalqimiz farovonligi yo'lidagi samarali ishlaringizda ulkan zafarlar yor bo'lsin!

Mulohaza

EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHGA HISSA QO'SHING!

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida havoning ifloslanishi, chang miqdorining ortishi kuzatilmoqda. Atmosferada sodir bo'layotgan o'zgarishlar insonlarning turmush tarzi, hayot sifatiga aks ta'sir ko'rsatmoqda.



Toza, musaffo havo, avvalo, Allohning bandalariga in'om etgan buyuk ne'matlaridan. Ammo insonlar nafas olayotgan havosining tozaligi, musaffoligiga bevosita yoki bilvosita zarar yetkazmoqda: dov-daraxtlarni kesyapti, o'rmonlarni yo'q qilish payiga tushgan. Manziliga piyoda yurish, velosiped orqali yetib olish mumkin bo'lgan taqdirda ham avtomobillardan foydalanyapti. Uyni isitish uchun qattiq yoqilg'i (masalan, ko'mir, o'tin) ni haddan ziyod ishlatyapti. Havoning ifloslanishiga sababchi bo'lyapti.

Dinimizning muqaddas kitobi hisoblangan Qur'oni karimda Alloh in'om etgan ne'matlarning qadriga yetish, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik, Yer yuzini fasoddan saqlash ko'p bor uqtirilgan. Bayhaqiy tomonidan rivoyat qilingan 133-hadisda Payg'ambarimiz Rasululloh (s.a.v) shunday deganlar: "(Islomda) Zarar ko'rish ham zarar berish ham yo'q". Xazonlarni yoqish, sanoat chiqindilarini daryo va kanallarga ko'r-ko'rona oqizish – hadis mazmuniga zid keluvchi amallardan. Insonning nafas olayotgan havosini ifloslantirishi nafaqat o'ziga, balki o'zgalarga – butun boshli jamiyat a'zolariga ham qimmatga tushadi.

2022-yil 5-aprelda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan taqdim etilgan ma'lumotga ko'ra, G'arbiy Tinch okeani mintaqasida yashovchi aholining 90 foizdan ortig'i ifloslangan havodan nafas oladi. Havo ifloslanishi natijasida har 14 soniyada bitta odam vafot etadi.

Havo haroratining ko'tarilishi, iqlim o'zgarishi natijasida o'rmon, daraxtzor, cho'l kabi hududlarda yuzaga keladigan yong'inlar soni ortadi. Yong'in paytida havoga ko'tariladigan mayda zarralar, gazlar ekologik

muvozanatning buzilishiga olib keladi. 2025-yil 19-avgust kuni "The Guardian" nashrida chop etilgan Ajit Nirajan muallifligidagi maqolada yong'in vaqtida havoga ko'tariladigan mayda zarralar, gazlarning insoniyat sog'lig'iga ta'siri tadqiq etilgan. Xususan, o'rmon, daraxtzor, cho'l singari hududlarda yuzaga keladigan yong'inlar 2004–2022-yillar davomida Yevropada yiliga 535 kishining umriga zomin bo'lgani ta'kidlangan. Havoning bir kubometriga diametri 2,5 mikrometrdan kichik bo'lgan chang zarrachalari qo'shilgan taqdirda, o'limlar soni 0.7 foiz, nafas yo'llari bilan bog'liq xastaliklar 1 foiz, yurak-qontomir kasalliklari 0.9 foizga oshadi. Tutun 1 milliarddan ortiq insonning uyiga kirib boradi. Uydagi havo sifatini yomonlashtiradi. Xonadonlarda havo tozalovchi qurilmalarni o'rnatishga ehtiyoj seziladi.

Endryu Gregorining "Havo ifloslanishi natijasida Buyuk Britaniyada har hafta 500 dan ortiq odam vafot etmoqda, deydi shifokorlar" sarlavhali kengaytirilgan xabarida aholining 99 foizi "zaharli" havodan nafas olayotgani, havo ifloslanishi Buyuk Britaniya iqtisodiyotiga katta zarar keltirayotgani, xususan 500 mln funt sterling sarflangani ta'kidlangan. Holat Buyuk Britaniya misolida tahlil qilingan. Qirollik shifokorlar kolleji ma'lumotlariga ko'ra, ifloslangan havo hafta davomida 500 dan ziyod odamning hayotiga zomin bo'lgan. Hatto past konsentratsiyada – havoda zararli moddalar miqdori kam bo'lgan taqdirda ham inson organlari sog' qolmagan.

"Havo ifloslanishi inson salomatligi uchun jiddiy xavflardan biriga aylandi. Ta'siri yillar davomida seziladi. So'nggi o'ttiz yillikda Buyuk Britaniyada havoni ifloslantiruvchi moddalar miqdori kamayishiga erishildi. Ammo hali

ham ifloslangan havodan nafas olish surunkali kasalliklar qo'zg'atuvchisi va erta o'limning sababchisi, deya tilga olinmoqda", deydi Buyuk Britaniya bosh vrachi, professor Kris Uitti.

Shuningdek, "Asthma and Lung UK" tashkiloti taqdim etgan hisobotda havo ifloslanishi nafas olish tizimi bilan bog'liq kasalliklari bo'lgan har beshinchi odamda astma yoki shunga o'xshash xurujlarni qo'zg'ayotgani qayd etilgan. Havo ifloslanishi Buyuk Britaniyada har yili 30 000 odamning vafot etishiga sabab bo'ladi va mamlakat iqtisodiyotiga 27 mlrd funt sterling zarar yetkazadi. Ayon bo'ldiki, havoda xavfsiz konsentratsiya (zararli moddalar miqdori) mavjud emas.

Insoniyat vujudga kelishiga zamin yaratayotgan ekologik muammolar, kezi kelganda, o'ziga qarshi ishlamoqda. Ifloslangan havodan nafas olish natijasida inson umri o'rtacha 1,8 yilga qisqarmoqda. O'limga sabab bo'luvchi birlamchi omillar qatorida kishilik jamiyati vakillari tomonidan saraton, kashandalik va yurak-qontomir kasalliklari tilga olinadi. Buyuk Britaniyalik olimlar ifloslangan havodan nafas olishni ham ular safiga qo'shish mumkinligini ta'kidlashmoqda.

Fursat – g'animat. Ona tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish vaqti yetdi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish, havoning ifloslanishiga sabab bo'luvchi omillarga qarshi kurashish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlashga hissa qo'shish mumkin. Oqibatda kelgusi avlod toza havodan nafas oladi. Zilol suv, musaffo havo, go'zal tabiatdan bahramand bo'ladi.

Ulug'bek SHAROBIDDINOV,
O'zJOKU talabasi

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati
bilan bog'lanish uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA

VATANPARVAR

MUASSIS



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarshiyev
podpolkovnik Timur Narziyev
Maqsd Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-91
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-90

Navbatchi: podpolkovnik Gulnora Xodjamuratova
Sahifalovchi: Tohirjon Turg'unboyev
Musahhih: Sayyora Mirzayeva

Buyurtma: V-6053
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 31 997 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi. Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi

www.mv-vatanparvar.uz
www.mudofaa.uz

mudofaavazirligi

mudofaavazirligi

www.youtube.com/c/UzArmiya